JAHON BOLALAR ADABIYOTI

Bola bilan Kapalak

3



Kitob shu erda ko'rsatilgan muddatdan
kechiktirilmagan holda topshirilishi shart

ilgarigi berilmalar miqdori _____

93
ziz A.
apa-
04 b.

UDK 821.111-3
J-39

JAHON BOLALAR ADABIYOTI

Bola bilan Kapalak



G‘afur G‘ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi
TOSHKENT – 2020

UO‘K 821.111-3
KBK 84(O)
J 39

Tuzuvchi va tarjimon
Miraziz A’zam

Jahon bolalar adabiyoti: Bola bilan Kapalak, / To‘plab nashrga tayyorlovchi M. A’zam – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2020. – 104 b

Qadrli o‘quvchilar! Nashriyotimiz siz azizlarga 10 jilddan tashkil topgan «Jahon bolalar adabiyoti» seriyasini taqdim etadi. Kitoblar jahon bolalar adabiyoti yozuvchi va shoirlarining ertak, hikoya, she’r va boshqa ko‘plab janrdagi asarlarni o‘z ichiga qamrab olgan. Qo‘lingizdagi ushbu uchinchi jildda siz Italiya, Bolgariya, Polsha, Chexiya, Slovakiya, Ruminiya, Serbiya, bolalar adabiyoti bilan yaqindan tanishasiz.

TOSHKENT S.YUNUSOBOD TUMANI
№ 2021/11-1193
OROT-KUTUBXONA MARKAZI

UO‘K 821.111-3
KBK 84(O)

ISBN 978-9943-5169-3-8

© G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020

ITALIYA BOLALAR ADABIYOTI

JANNI RODARI



Atoqli bolalar shoiri Janni Rodari shimoliy Italiyaning Olenya viloyatida 1920-yilda tug‘ilgan. Otasi nonvoy edi. Janni 9 yoshga kirganda otasi vafot etib, u ukalari Chezare va Mario bilan onasining Varesotti degan qishlog‘ida ulg‘aydi. Kichikligidan kasalmand va zaif bo‘lgan bola bu yerda musiqa va kitoblarga qiziqib qoldi. Skripkadan dars oldi. Shu yerdagi seminariyada uch yil o‘qidi. 17 yoshidan qishloq maktablarining boshlang‘ich sinflariga dars bera boshladi. 19 yoshida Milan universitetining til-adabiyot fakultetiga o‘qishga kirdi. Ikkinchi jahon urushi boshlangan yili sog‘ligi yomon bo‘lgani uchun xizmatdan ozod qilindi. Yaqin do‘stlari urushda halok bo‘lib, ukasi Chezare konslagerga qamalgandan keyin xalqning Qarshilik Harakatiga qo‘shildi.

1948-yilda jurnalistlik qila boshladi, «Unita» gazetasida ishladi. U maktabda ishlab yurgan chog‘laridanoq bolalar uchun she’rlar mashq qilardi. Endi gazetaning bir burchagida bolalar adabiyoti uchun doimiy joy oldi. 1950-yilda Rimda «Pioner» degan maxsus bolalar jurnali tashkil qilinganda Janni Rodari unga muharrir etib tayinlandi. Shu yili uning birinchi «Quvnoq she’rlar kitobi» bosilib chiqdi. She’rlari xalq og‘zaki ijodiyoti namunalarini eslatardi. Ayniqsa bolalar o‘rtasida keng tarqalgan lapar, sanama,

qo‘shiqlarning o‘ynoqi ohanglari, kulgili voqealarni tasvirlash usullaridan ustalik bilan foydalanardi. Shoirning bu kitobi va bundan keyingi «She’rlar poyezdi» (1952), «Osmondagi va yerdagi she’rlar» (1960) kitoblari bolalarning sevimli asarlariga aylandi. Ularda shoir mehnat quvonchlarini tasvirlab ko‘rsatib beradi. «Charxchi», «Kasblarning hidi qanaqa?», «Kasblarning rangi qanaqa?» kabi qator she’rlarida kundalik maishiy hodisalardan dunyoviy ahamiyatga ega bo‘lgan katta-katta va murakkab xulosalar chiqarilganini kuzatish mumkin. Bu she’rlardagi xushchaqchaq kulgi, musiqiylik va tanqid o‘quvchining yuragini kelajakka ishonch tuyg‘ulari bilan boyitardi.

1950-yilda Janni Rodari jurnalda o‘zining nasriy yo‘lda yozilgan «Chipollinoning boshidan kechirganlari» nomli ertak-qissasini e’lon qildi, bir yildan keyin u alohida kitob qilib chiqarildi. Bu kitobning bolalar o‘rtasida sevilib o‘qilayotganidan ilhomlangan Rodari «Moviy o‘qning sayohati» (1952), «Telefonda aytilgan ertaklar» (1961), «Jelsomino yolg‘onchilar mamlakatida» (1959), «Xatolar kitobchasi» (1964), «Tort osmonda» (1966) qissalarini yozdi.

Rodarining deyarli hamma asarlari rus tiliga tarjima qilindi. «Telefonda aytilgan ertaklar», «Jelsomini yolg‘onchilar mamlakatida» nomli kitoblari va bir she’riy to‘plami o‘zbek tiliga ham o‘girilgan.

Janni Rodari 1953-yilda Mariya Tereze Ferretti ismli qizga uylandi va ular 1957-yilda bir qiz ko‘rib, otini Paolo qo‘yishdi. Shu yili Rodari rasmiy ravishda jurnalistlik malakasi uchun imtihon topshirdi.

1970-yilda Hans Kristian Andersen mukofotiga sazovor bo‘ldi, bu esa o‘z navbatida Rodarining butun dunyoda tanilishiga yordam berdi. U 1980-yilda 60 yoshida Rimda vafot etdi.



Yangrab tursin qo‘shiq lablarda
Har qo‘shiqchi zo‘r desak – xato.
Ammo qo‘shiq horg‘in qalblarga
Qittay mardlik etadi ato.

KASBLARNING RANGI QANAQA?

Har kasbning o‘zgacha, farqli rangi bor.
Mana, ko‘ring, nonvoy – oppoq, xuddi qor.

Sochlari oq uning, qosh, kiprigi oq,
Ertalab qushlardan turar oldinroq.

O‘tyoqarning rangi qora-quradir,
Bo‘yoqchining rangi ola-buladir.

Zavodga kiring-da, ishchiga qarang:
Uning ish kiyimi ko‘kday havorang.

Ishlovchining qo‘li moyli, sap-sariq.
Tekinxo‘rning qo‘li rangsiz, op-oriq.

Barmoqlari nozik, belgi yo‘q biron,
Na moy yuqi bor-u, na qurum-qatron.

Sevinmang terisi oq deb bu ora,
Ularning ishlari juda qop-qora.

KASBLARNING HIDI QANAQA?

Har qanaqa ishning ham
O‘z hidi bo‘lar.
Nonvoyxonadan xamir,
Yog‘ hidi kelar.

Duradgor ish joyiga
Kirsangiz, aha! –
Hid taratib turadi
Qipiq, payraha.

Bo‘yoqchidan alif-u
Rang hidi kelar.
Oynachidan zamazka,

Chang hidi kelar.
Oshpazdan taom hidi,
Dud hidi kelar.
Bog‘bondan yaproq hidi,
O‘t hidi kelar.

Salgina benzin hidi
Kelar shofyordan,
Yoqimli dori hidi
Kelar doktordan.

Baliqchida dengiz-u
Baliq hidi bor.
Dehqonda tuproq hidi,
Ariq hidi bor.

Lekin yalqov boylardan
Atir sepsa ham,
Insonlik hidi kelmas,
Yodda tut, bolam.

SHAHAR TRAMVAYI

Meni tongotarda uyg‘otmas xo‘roz,
Uyg‘otar tramvay taratgan ovoz.

To‘q moviy ish kiyim kiyingan ishchi
Tramvayda yo‘ldan o‘tar birinchi.
Keyin tramvayda o‘tishar qalqib
Sipo xizmatchilar gazeta o‘qib.

So‘ngra tramvayni to‘ldirar gala:
Joylarni egallar bir to‘da bola.

Bir tarafda qiy-chuv, bir yonda sur-sur...
Tramvay o‘zi ham boladay qurg‘ur.

Har kuni sahardan takrorlar shuni –
Turlanish, tuslanish, oluv, qo‘shuvni.

OQARGAN SOCHLAR

– Hoy g‘ishtchi amaki,
Usta amaki!
Ayting-chi, oqargan
Sochingiz nechta?

– Dunyoda men qancha
Uy qurgan bo‘lsam,
Oqargan sochim ham
Ana o‘shancha.

– Hoy muhtaram ustoz,
Muallim ota!
Ayting-chi, oqargan
Sochingiz nechta?

– Men qancha bolaga
Dars bergan bo‘lsam,



Oqargan sochim ham
Ana o‘shancha.
– Buva, siz buvamsiz,
Otamga ota!
Ayting-chi, oqargan
Sochingiz nechta?

– Ertak aytgan bo‘lsam
Sizlarga qancha,
Oqargan sochim ham
Ana o‘shancha.

DUNYODA SUV HAR XIL BO‘LADI

Dunyoda suv har xil bo‘ladi.
Mana biri: hovuzdagi suv –
Uvildiriq hidi keladi.
Buloq suvi tarovatli suv.
Bu naqlimni hamma biladi:
Ummon suvi tuzli bo‘ladi.
Quduq suvi muzdek bo‘ladi.
Yozda jala quyib o‘tganda,
Ko‘pincha sen yuzing tutganda
Sezgandirsan: iliq bo‘ladi.
Men ham yomg‘ir suvidek iliq
Suv ko‘rmadim, bu gapim aniq.
Onalarning ko‘z yoshi kabi
Achchiq suv yo‘q lekin dunyoda –
Shu gapimni saqlagin yodda.
Yaxshi bo‘lgin, mehribon, yuvosh,
Sen deb onang to‘kmasin ko‘z yosh.

QOCHOQLAR POYEZDI

Hech qaysi qochoqdan kulmangiz zinhor,
Uning yelkasida zilday yuki bor.

Kichik xaltachada bir qism tuproq –
Hidlar sog‘intirsa jonajon qishloq.

Bo‘xcha, jomadonda bir sidra kiyim,
Ozroq non-choy, asal, olmali halim.

Jomadon, bo‘xchaga sig‘madi ko‘ngil,
Uyida – qishloqda qoldi u sabil.

Qishloqdan ketgisi kelmadi aslo:
Qishloq qolaverdi gung, motamsaro.

Sodiq it singari qoldi dala-da,
Kim ham qarar unga shunday pallada.

Ana so‘nggi shudgor – aziz tuproqlar,
Uni ham yashirdi yiroq-yiroqlar.

LYUCHIO PIZANI

Atoqli italyan shoiri Lyuchio Pizani adabiyotga o‘tgan asrning ikkinchi yarmida kirib keldi. Uning rus tilida 1976-yilda nashr etilgan «Прогулка с отсом», ya’ni «Dadam bilan sayr» nomli kitobchasi bor. U bilan tanishgan kishi Lyuchio Pizani she’riyatining eng muhim xususiyati gumanizm, ya’ni insonparvarlik ekan, degan xulosaga keladi. Ko‘pchilik gumanizm, ya’ni insonparvarlik degan so‘zni yaxshi tushunadi. Adabiyotda gumanizm deganda insonning insonlik sha’nini, shaxsiyatini hurmat qilish, uning farovonligi, har taraflama kamoloti uchun qayg‘urish, ijtimoiy hayotda inson uchun qulay sharoitlar yaratishni ifoda qiluvchi qarashlarning jami tushuniladi. Inson jamiyat ichida yaxshi yashashga haqli bo‘lgan noyob boylik ekanini e’tirof etishining asosiy tamoyilidir. Mana, Lyuchio Pizanining «Yomg‘ir» sarlavhali she’riga e’tibor bering. Unda shoir o‘quvchilar diqqatini asosan nochor yashayotgan oilalarning ahvoliga qaratadi. Yog‘ingarchilik paytlarida keksalarning notinch bo‘lishi, kambag‘allarning uylaridan chakkalar o‘tib, uy ahli kasallanishi to‘g‘risida o‘ylatadi va ayni chog‘da qora bulutli, seryomg‘ir bu kunlar o‘tib ketajagini ta’kidlab, bunday g‘ariblarni yupatishga harakat qiladi. Bu aynan insonparvarlikning o‘zginasidir.

She‘rlar

YOMG‘IR

Men uch yoshga kirib qo‘ydim,
Yog‘in-sochin ne bo‘pti?
Qaysi bola uch yoshida
Yomg‘ir yog‘sa, qo‘rqipti?

O‘rab-chirmab meni oyim,
Mahkam quchib oladi.
Boshim uzra qo‘lchodiri
Zo‘r boshpana bo‘ladi.

3 yosh emas, 7 yoshli
Bolalar ham qo‘rqmaydi.
Yomg‘ir yog‘sa, bayram qilib
Ko‘chalarda sakraydi.

Rost aytyapman shu gapimni,
Yomg‘ir o‘zi bayram-da!
Notinch bo‘lar faqat chollar
Yog‘in-sochin bo‘lganda.

Ammo sharros quysa yomg‘ir
Eski uylar tomiga,
Uy ahlini kasalliklar
Tortib ketar komiga.

Kambag‘allar ertan kunni
Umid bilan kutadi:
Qora bulut, sel-yomg‘irlar
Albat o‘tib ketadi.

DADAM BILAN SAYR

Havo ochiq tongda dadam ikkimiz
Yuqorilab ketdik so‘qmoqlar bo‘ylab.
Uncha og‘ir emas olgan yukimiz,
«Qanday baxtlimiz!» deb ketyapman o‘ylab.

Balandga chopaman qushlarday uchib,
Tog‘ yuksak bo‘lsa ham – parvoyim falak.
Ana, ko‘rinmoqda tog‘larning uchi –
Men unga chiqishim, yetishim kerak.

Dadam kelar bir-bir bosgancha qadam,
Ortda qolib ketdi mendan bir talay.
Charchab qolganidan siqilar dadam,
Chamasi, qaribroq qoldi har qalay.

Men endi chopmayman. Chopolmayman, yo‘q.
Mana, yonma-yonmiz. Ko‘z esa – ko‘zgu:
Dadamning ko‘zidan o‘qidim aniq –
Qo‘msayotir epchil yoshligini u!

– Sening kuchli payting! – deb qo‘ydi menga,
– Yugur! – der... qalbimda yoqmoqchi olov...
– Dam olish payti-ku! – dedim men unga.
So‘ng bitta to‘nkaga o‘tirdik ikkov.

Dadam qah-qahladi, tashladi xandon,
Quchishib o‘tirdik, saqladik sukut.
Sal-pal qorong‘iroq bo‘ldi-yu o‘rmon
So‘ngra o‘tib ketdi o‘tkinchi bulut...

TUSHUNARSIZ HOL

Mundoq o‘ylab qarasam:
Yo‘l baribir yo‘l.
Ammo hamma uchun ham
Bir xil emas ul.

Birov tepadan pastga
Tushar chopqillab,

Birov tepaga pastdan
Chiqar harsillab.

Birov shamolni kulib
Yorib o‘tadi.
Birov tuyqus qoqilib
Munkib ketadi.

Sizga bir savol shu tob –
Savolim oddiy.
Ammo, iltimos, javob
Qaytaring jiddiy:

Ko‘cha-ku o‘zi to‘kis,
Nima uchun, bas,
Hamma uchun bir tekis,
Sip-silliq emas?

ESIZGINA

Sekin-sekin,
Asta-sekin
Baland bir tomda
Bir g‘alati bola yurar
Pildirab shomda.
Sakrab-sakrab yulduzlarga
Borardi qarab...
Bir rivoyat eshitganda
Bir paytlar yayrab:
May oyida, kim xohlasa,
Shomdan so‘ng sekin
Yulduzlarning nurlariga
minishi mumkin.

Sekin-sekin,
Asta-sekin
Uchsa bo‘ladi.
Uchib borib yulduzlarni
Quchsa bo‘ladi.

U payt savol bermagandi
G‘alati bola,
«Bo‘lmagan gap!» demagandi
G‘alati bola.
Yuragiga tushgan edi
Niyat o‘sha kun:
«May kelganda men, albatta
uchaman bir tun».
Xayrlashdi,
Yo‘lga tushdi
Kelganida may.
Tushdi kasalxonaga u,
Hech ne anglamay!

SHAMOL

Eshiklarni ilgagidan
uzib yuborgan,
Daraxtlarni ildizidan
sug‘urib olgan,
O‘sha yovuz shamol hozir
qayerda ekan?
Qayerlarga bordi ekan
va tindimikan?
Uvullagan,
G‘uvullagan
u mag‘rur telba
Topdimikin biron yerda

biron bir kulba?
Uyqularga cho‘mdimikin
oxiri bir kech?
Yo‘lchilarning so‘nggi ohin
eslarmikin hech?
Qayda ekan so‘nggi uyi,
so‘nggi yotog‘i?
Bilgim kelar –
ne bo‘ldiykin oxir bu yog‘i?
Darsligimda bu savolga
topilmas izoh –
Tushunarsiz,
Takrorlanmas
ne edi u, oh?!

ZOLUSHKA VA NOHAQLIK

Bir qizni bosganda
Qo‘rquv, tahlika,
Tuflisin yo‘qotib –
Bo‘lgan malika.
Hamma bilar o‘shal
Qiz hayotini –
Zolushka deyishar
Uning otini.
Kimdir darvozaga
Bir to‘pni tepib,
Boshmog‘i yirtilib
Ketsa shirt etib,
Onasidan zumda
Oladi biroq
Bitta yelka mushti,
Ikki shapaloq.

QORBOBO

Bir bola uxlolmas – u hayajonda:
Qorbobo keladi erta azonda.
Sovg‘a berar, kirib har bir xonaga
Gapga kiradigan yaxshi bolaga.
Bolani juda ham qiynar bir savol:
Qorbobo qo‘lini siltab bemalol
Unga sovg‘a bermay o‘tib ketsa-ya,
Shundoq eshigidan qaytib ketsa-ya?..
Notinch shuni o‘ylab – zo‘r hayajonda,
Qorbobo keladi erta azonda.

QORQIZ BILAN BIR BOLA

Bolalar ermakka yasagan qorqiz,
Kechasi bir o‘zi qolganda yolg‘iz,
Yuksakda yulduzli osmonni ko‘rib,
Sovuqdan yayradi yuragi urib:
Bir tarafda bog‘lar, bir yonda jarlar,
Eh, qanday chiroyli muzlar va qorlar!

Ammo ertasiga quyosh yilt etdi –
Qorqizning yuragi shuv etib ketdi:
Shu’lalar va nurlar o‘ynadi g‘ujg‘on,
Har yoq isib ketdi, jonlandi har yon.
Qorqiz esa o‘ngib, qiyshaygancha bosh,
Erib oqib ketdi to‘ka-to‘ka yosh.

Bolaning-ku sochi jingalak juda,
Yashaydi tomlari teshilgan uyda.
O‘ranib-chirmanib, bo‘lib bir tutam
Qorbobo bo‘pketdi qorda o‘ziyam.

YUNUSOBOD TUMANI № 2009/11-1193 BOLALAR KUTUBXONA MARKAZI

Sovqotgan oyoqlar ilimas jindak,
Ich-ichidan sanchar yaramas so‘zak.

Ammo ertasiga yilt etdi quyosh
Va bola uyiga tikka tiqdi bosh.
O‘ynadi u bilan og‘a-inidak,
Quyoshning taptidan ilidi yurak.
Atrofga qiynalib nazar solmadi,
Ko‘zida bir tomchi yoshi qolmadi.

BOLGARIYA BOLALAR ADABIYOTI

IVAN VAZOV



Ulug‘ shoir, nosir va dramaturg Ivan Vazov 1850-yilda Bolgariyaning Bolqon tog‘i etagidagi Sopote shahrida boy tijoratchi oilasida tug‘ilib, 1921-yilda Sofiyada vafot etgan. Otasi katta savdogar edi. Onasi kitob o‘qishni sevadigan uy bekasi o‘g‘lini ham kitobxon qilib o‘stirdi. Oldin mahalliy maktabda, so‘ng o‘sha paytdagi katta madaniy markaz hisoblangan Plovdiv shahrining gimnaziyasida o‘qidi.

Birinchi she’rini 16 yoshida yozgan edi. Matbuotda ilk bora «Qarag‘ay» degan she’ri e’lon qilinganda 22 yoshda edi. Bu she’r darhol keng o‘quvchilar ommasining diqqatini qozondi. Otasi «Bunday mayda-chuyda ishlarni qo‘y», deb uni savdo sohasiga boshladi, onasi esa, «Tinmay yozaver», deb maslahat berdi. U otasi bilan Ruminiya va boshqa mamlakatlarda uncha-muncha savdo bilan shug‘ullanib yursa ham, asosiy vaqtini adabiyotga, ijodga bag‘ishlardi. Bora-bora butunlay adabiy faoliyatga berildi.

Tarixdan ma’lumki, bu paytda Bolgariya Usmonli imperatorligining bir qismi edi. 1877–78-yillarda Rossiya-Turkiya urushi yuz berib, Turkiya yengildi, natijada 1879-yilda Turkiyaga tobe Bolgariya knyazligi tuzildi. 1908-yilda esa butunlay mustaqil davlatga aylandi.

Albatta, hamma mustamlakalar kabi, Bolgariya ham mustaqillik uchun kurashgan, undan umidi katta edi. Ammo milliy davlat tepasiga kelgan liberallar boylarning manfaatini himoya qildi. Xalqning hayoti og‘irlashdi.

Ivan Vazov avvaliga milliy-ozodlik uchun kurashchilar qatorida edi, ammo xalq turmushining ayanchli ahvolini ko‘rib, o‘zi boylardan bo‘lishiga qaramay, xuddi rus yozuvchilari Pushkin, Lermontov, Gogol, Tolstoy kabi, bolgar xalqining, ayniqsa, ezilgan dehqonlarning haqlarini himoya qiluvchi asarlar yozdi. O‘zining xalqchil she’r va dostonlari, roman, qissa va hikoyalari, sahna asarlari bilan chin ma’noda xalq yozuvchisiga aylandi.

Ivan Vazovning ijodiy merosi juda boy. «Bayroq va gusla», «Bolgariya iztiroblari», «Qutulish», «Unutilganlar dostoni», «Dalalar va o‘rmonlar», «Sargardonlar qo‘shig‘i», «Osmonimiz ostida», «Uchta so‘z – uch dara» kabi o‘nlab she’riy to‘plamlari, «Mahobat», «Tepalik ortida» kabi dostonlari, «Yangi yer», «Kazalar yurtining shohinasi», «Zulm» kabi romanlari, «Xo‘rlanganlar», «Mitrofan va Dormidolskiy», «Dali O‘rmon qissasi» kabi yuzlarcha hikoya va qissalari bosilib chiqqan. Rus tilida uning olti jildli Asarlar to‘plami nashr etilgan.

Ivan Vazov nomini har bir bolgar kishisi yuksak milliy iftixor bilan tilga oladi. Bu nom bolalikdan boshlab har bir bola uchun aziz va mo‘tabardir. Bolgariyada Ivan Vazov romanlarini, qissa va hikoyalarini o‘qimagan, she’rlarining go‘zalligi va nafis ohangdorligidan rohatlanmagan biron maktab o‘quvchisini topib bo‘lmaydi.

She‘rlar

YANGICHA MAQOMGA SOZLANDI GUSLAM

Yoshligim o‘tdi tinch hayotni maqtab,
Kuyladim sevgini, baxtli damlarni.

Sokin orzularni guslamda alqab,
Payqamay qolibman ichki g‘amlarni.
Guslamga jo bo‘ldi mangu go‘zallik,
Tepamdagi ko‘klar, o‘ngimda yerlar,
Guslamga jo bo‘ldi quyosh, oy, yulduz,
Tongda gullar bilan sirlashgan ellar.
Kuyladim qonlarning jo‘shgan onlarin,
Tim qaro ko‘zlarni, inja qoshlarni,
Ehtirosli umid quvonchlarini,
Neki o‘tga solsa qizg‘in yoshlarni.

Kuyladim jonajon sog‘ tuproqlarni,
Ufqqa yugurgan dalalarimiz,
Bizning Bolqonlarni – ajib tog‘larni –
Tavsiflab va qarab to‘ymadim hargiz.

Kuyladim zavqlanib! Ko‘zlarim tinib!
Madh etdim gullar-u yoshlar xayolin.
Kuylabman, ko‘rmabman: ezilib, sinib,
Tinkasi qurigan akamning holin.

Otashin tonglarni kuylagan kuydan
Bizga nima foyda, so‘rayman endi.
Bilaman, azoblar bitmaydi bundan,
Yo‘q bo‘lib ketmaydi qalbdan qirindi.

Jannatga o‘xshaydi bizning gul diyor,
Lekin bu go‘zallik tushmas qaroqqa.
Chunki bir ayovsiz zolim hukmdor
Elning ozodligin ko‘mgan tuproqqa.

Chahchahlab sayrashar har yonda qushlar,
Ko‘mib ketar ammo ingroqlar buni.
Bas qiling, to‘xtasin yolg‘on qo‘shiqlar
Sayramasin, o‘chsin sozlarning uni.



Qismatlari achchiq qayg‘uli qullar
Kuylarim totini anglay olmaslar.
Atrofda shaqirlab tursa zanjirlar
Kerakmas qalblarga quvonchli saslar.
Dovyurak, yosh ruhim boshlayotir jang,
Shart uzdim torni o‘z xohishim bilan.
Yangi torlar tortib, ayladim tarang
Ham ularni yuvdim ko‘zyoshim bilan.

Endi tovushlari bo‘lgaydir g‘amgin
O‘rmonlarda yellar uvullaganday,
Qari bo‘jilarday ingranar bezgin,
Yantra daryosi guvullaganday.

Kimda kim qiynalsa sevikli el deb,
Qay qalbda yurt uchun bor bo‘lsa yig‘i,
U meni tushungay, xalqning g‘amin yeb,
O‘shandoq yurakni qo‘zg‘ar qo‘shig‘im.

Mustabidga qarshi qilaman isyon,
Ichimda cho‘kkancha yotgan alanga
Otilib chiqadi yurakdan giryon,
Lovullab ko‘ringay butun jahonga.

Bas, yetar, aldandim shu vaqtga qadar!
Bas, yetar besamar o‘ylar, qo‘rquvim!
Bas, yetar, burchimga qilayin amal,
Ozod qo‘shiq bo‘lsin endi qo‘shig‘im!

QISH

Qish. Oynamiz ustiga qirov
Chizmish ajib to‘plar, parqular.

Men yolg‘izman. O‘ylarim birrov
Sendan qolmas, ortingdan quvlar.

Qor qopladi butun hovlimni,
Qalbda bahor, bilmayman nega...
Qayerdasan? Angla holimni:
Chizmoqdaman rasming oynaga.

BIZNING OSMON OSTIDA

Sochdan tirnoqqacha tug‘ildim shoir,
Qalbimdan kuy oqar yurtimga doir.
Ko‘klam gul ochsa ham, bo‘ron tursa ham
Jaranglab tinmaydi, kuylaydi jonim,
Sening havoyingdan hamisha bardam,
Bulg‘oristonim!

Mening ruhim ozod, qanotli har vaqt,
Unda xalq kuylari yangrar baquvvat.
Ko‘hna Bolqonlarni ko‘rganida bir
Unga kuch berar yurt, ona makonim,
Tikka ko‘k toqiga uchmoqqa qodir,
Bulg‘oristonim!

Yuragim uradi, chekadi jafo,
Har kimning dard-g‘ami berar aks-sado.
Har bitta torimni diqqat-la tingla,
Torlarga urilgan jon-u jahonim,
Yuragim bir xildir sening qalbing-la,
Bulg‘oristonim!

Ilhom parim men-la birgadir mangu,
Shod, g‘amgin kunlaring menga yo‘ldosh u,
Eng shirin so‘zlarni shivirlar menga,

Yangi ijod chog‘i, eng qizg‘in onim,
Ilhom parim quloq tutadi senga,
Bulg‘oristonim!

OLDINGA

Oldinga, oldinga! Emakla, uch, yur,
Faqat yarim yo‘lda ivirsib qolma!
Ko‘ksingda zo‘r maqsad bo‘lsin bir umr,
Tashvish o‘tlaridan xavotir olma,
Oldinga, oldinga yur!

«Ishonmayman», «Bu ish bo‘lmaydi...» degan
So‘zlarni lug‘atdan o‘chirib tashla!
Ishon, hamma ishni qila olasan,
Shubhalarni toptab, mard yurish boshla,
Siltan qat’iyat bilan!

Qiyin cho‘qqilarga solaver chovut,
Bilaman, yo‘llarning tikoni bordir,
Yo‘llardan sakrab o‘t, jardan uchib o‘t,
Makkor girdoblarni orqada qoldir,
Qo‘rqmaslarni kutar qut!

Yebto‘ymas olg‘irlar, ofat, qayg‘ular,
Yo‘lingni to‘ssalar, zo‘r bo‘l yanada,
Qo‘rqma u shumlardan. Chekingay ular
Sen maydonda turgin, bo‘lma panada,
G‘alaba tug‘in ko‘tar!

Oldinga! Mo‘jiza yaratar sabot,
Agar mahkam bo‘lsa qalbingda imon,

Ketingdan ergashar butun xalq, avlod,
Qo‘rqmaslarni quchar sharaf ila shon,
Chiroyli bo‘lgay hayot!

QO‘SHCHI QARSHISIDA

Biz o‘ynab yuramiz dala-dashtlarda,
Qo‘shchi qo‘sh xaydaydi, shudgorga borib.
San’atdan, she’rlardan gap-gashtaklarda
Chiroyli so‘zlaymiz, yonboshlab olib.

So‘zlaymiz chimirib qoshlarimizni,
Azobsiz, zahmatsiz o‘tkazamiz kun.
To‘xtanglar... egaylik boshlarimizni
Kelyapgan shu qo‘shchi hurmati uchun.

UCHTA SO‘Z – UCH DARA

O yurak, o dengiz, o falak –
Uchta so‘z, uchta sir, uch ruyo.
O falak, o dengiz, o yurak –
Uch dara, cheki yuk uch dunyo.

MENING ONAM

Yulduzlar ko‘p ko‘kda rangorang –
Bor ekanman dunyoda hamon –
Sening o‘lmas, toza qiyofang
Menga yo‘ldosh doim, onajon.

Tebratarding meni saharda,
Beshigimga qo‘yar eding yuz.
Uyqu kelmas og‘ir tunlarda
Menga alla aytarding ma’yus.

Men bag‘ringda voyaga yetdim,
Mehring qildi ruhimni bardam.
Qarashlaring, gaplaring yutdim –
Quvonch va kuch topdim ulardan.

Sendan mening ko‘nglimga o‘tdi
Yovga nafrat, do‘stga muhabbat,
Sendan mening holimga o‘tdi
Go‘zalliklar oldida hayrat.

Meni tug‘ding, ko‘ksingni berding –
Sendan oldim yaxshilikni men.
Meni inson qilib o‘stirding –
Ikki karra onam bo‘lding sen.

ONA TILI

Dunyolar bor bulg‘or tilida,
Yangroqligi baxsh etar sevinch.
Ey, ona til, shoir qo‘lida
Sen chiltorsan, gohida qilich.

Sevdim seni, ey bulg‘or tilim,
Novdadaysan, birda toshdaysan.
Olmos kabi o‘tkir-u, halim,
Otash ruhli ham quyoshdaysan.

Qo‘shiqlar va qarg‘ishlar tili,
Toti esa sirli va sarxil.
Lol etadi inson zotini
Bu mardona, jasur va hur til.

Komilliging ko‘rinsin mangu,
Yasha yayrab Bulg‘or yerida,

Xotinlarning qo‘shiqlari-yu
Shoirlarning o‘tli she’rida.

EH, QANDAY YAXSHISAN, JONAJON VATAN!

Eh, qanday yaxshisan, jonajon Vatan!
Nafis osmonlaring muncha moviyrang!
Muncha ko‘p turlanar jonli manzarang!
Har gal titrab ketar zavqdan jon-u tan:
Bir yon sho‘x vodiylar, bir yon alp tog‘lar,
Seryulduz osmonlar, sergul o‘tloqlar...
Eh, qanday yaxshisan, jonajon Vatan!

Bormi el dunyoda sendan ham boyroq?
Senda jam jamiki ne’mat, sarvatlar:
Shu yerdadir shoyi, bug‘doy, sharbatlar,
Bog‘laring muattar, tonglaring oppoq.
Gullaring xushbo‘y-u o‘rmoning sarin!
Yosh qoplar shodlikdan inson ko‘zlarin...
Bormi el dunyoda sendan ham boyroq?

Sen oliy sevgiga loyiqsan, Vatan!
Xo‘rsinmasmi seni bir kezgan sayyoh?
Nimang yo‘q? Har narsa senda muhayyo!
Unuta olarmi seni bir ko‘rgan?
Olloh jannat uchun tanlasa bir joy,
Tanlardi boshqamas, seni, hoynahoy!
Sen oliy sevgiga loyiqsan, Vatan!

Jannatsan! Qadringga yetdikmi ammo?
Biz, g‘o‘r farzandlaring, nomingni tilga
Olishdan or qildik, borsak chet elga,
Bilmaganday saxiy bu yurtni go‘yo...

Bizning tog‘larimiz, vodiylarimiz
Meros, go‘zallikda bebaho, tengsiz!
Jannatsan! Qadringga yetdikmi ammo?

Oh, Vatan! Loqayd kun ko‘ramiz senda.
Chiroyingdan bizni bosmas hayajon.
Seni ko‘proq sevar tog‘larda jayron,
Ulug‘vor ko‘rkingni qush kuylar kunda.
Biz sendan istaymiz boshpana, nonni,
Na gulni ko‘ramiz, na-da osmonni...
Oh, Vatan, biz senda loqayd o‘lamiz!

ASEN BOSEV



Bolgar xalqining atoqli bolalar shoiri Asen Bosev 1913-yilda Ruska Bela qishlog'ida dehqon oilasida tug'ilgan bo'lib, avval ona yurtida gimnaziyani, keyin Berkovitsada pedagogika bilim yurtini tamomlagan. 1933 – 36-yillarda qishlog'idagi maktabda o'qituvchilik qildi, shu yillarda bolalar uchun she'rlar yoza boshladi.

1937-yilda Sofiyada Erkin Universitet diplomini olgan. 1942-yilda Sofiya universitetining huquq fakultetini bitirdi. «Заря» gazetasida jurnalist sifatida faol chiqib turdi. Keyin «Росица» va «Детский глаз» gazetalari bilan hamkorlik qildi. Bolalar uchun birinchi kitobi «Светулка» 1941-yilda bosilib chiqqan. Ikkinchi kitobi «Детска радост» 1942-yilda nashr etildi.

Asen Bosev Bolgariyadagi yangi hayotni, maktab bolalarining serg'ayrat faoliyatlarini kuylovchi ko'p kitoblar yozdi. Ko'pincha u yumorga, mazax-masxaraga murojaat qilar, shu orqali bolalar ongidagi qoloqlik alomatlariga qarshi kurashar edi. Kichik-kichik yumoristik she'rlaridagi boshqalarga o'xshamaydigan qahramonlarning obrazlari o'quvchilar zehniga joylashib qolardi. «Ussar Vanka», «Kircho sud qarshisida» kabi she'rlari shular jumlasidandir.

Asen Bosevning keng miqyosli ijodi har xil yoshdagi bolalarga mo'ljallangan. Kichkintoylarga yozganlari ham talaygina. «Besh

jurnalist chumchuqcha», «Gosho anglay boshladi», «G‘oliblar», «Ko‘z ko‘rmagan, quloq eshitmagan bir g‘aroyibot» kabi.

Asen Bosev ijodining bosh xususiyatlaridan biri shuki, u har doim hozirgi zamon bolalarining o‘z atroflaridagi muhit bilan to‘qnashuvlariga katta ahamiyat beradi, ularni hayotga hozirlaydi, bolalar e’tibor bermay o‘tib ketgan, ular uchun tushunarsiz bo‘lgan hodisalarning ichki tomonini ochib beradi. «Chin yurakdan tashakkur», «Quvnoq g‘aramlar», «Traktor» kabi dostonlarida xalq mehnatini ulug‘laydi, chunonchi, don yerga tushganidan tortib nonga aylanguncha va nonvoyxonaga, so‘ng do‘konga, oxiri dasturxonga kelguncha o‘tgan jarayonlarni ajoyib manzaralar berish orqali hikoya qiladi.

Asen Bosevning she’r va dostonlari Bolgariyada juda ko‘p nusxalarda nashr etilgan, ko‘p tillarga o‘girilgan. U 1950-yilda Davlat mukofotiga loyiq ko‘rildi, Madaniyat Arbobi unvonini oldi. 1986-yilda Xalqaro Andersen mukofotini oldi.

Asen Bosev 1997-yilda Sofiyada vafot etdi.

She’rlar

BO‘RINING AHMOG‘I

Och bo‘rining qorni tatalab
Izg‘ir edi qishloq yoqalab.
O‘tloq ichra kuppa-kunduzi
Uchrab qoldi otning bir o‘zi.
– Kerak eding menga xuddi sen!
Bir maza qip yutay seni men!
Ot pishqirdi: «Yutay» dedingmi?
Oh, men ko‘pdan xohlardim shuni!
Men uchun bu katta sharaf-ku!
Faqatgina maslahatim shu:
Sening otang emasdi ahmoq,

Otni senday yemasdi bundoq!
– Otam otni qanday yer edi?
– Maza qilib shoshmay yer edi.
Yirtmasin deb bo‘g‘z-u yoqasin,
Oldin uzib tashlab taqasin,
So‘ng to‘yguncha yotardi g‘ajib...
– Bu qiyinmas, soz ish-ku ajib?
Qani, cho‘z-chi tuyoqni bu yon...
Ot bir tepdi bo‘rini shu on!
Bo‘ri tunda keldi xushiga,
Ketdi arang ovga, «ishi»ga.
Ko‘ngli ozgan, og‘rirdi qorni,
Ko‘rdi birdan shoxli qo‘chqorni.
Daryo bo‘yi, qirg‘oqlar baland,
Huv pastda suv oqardi teran.
Bo‘ri mamnun dedi: – Zo‘r bo‘ldi,
Kel, seni bir to‘yib yey endi.
– Sevintirding, – dedi qo‘y, – meni
O‘zim izlab yuruvdim seni.
Bir kengashim bor senga biroq:
Otang senday emasdi ahmoq.
U daryoga ters turib avval
Og‘zin katta ochardi har gal.
Qo‘y yugurib, boqmay iziga,
O‘zin otar edi og‘ziga!
Qo‘yning sira qiynalmas joni,
Otangning tez to‘yardi qorni.–
Bo‘ri suvga orqa o‘girib
Og‘zin katta ochdi tek turib.
Qo‘y tislandi, tashlandi unga
Va uchirdi bo‘rini suvga.
Bo‘ri oqib ketdi daryoda...



Zo‘rg‘a omon qoldi dunyoda.
Achchiqlanib, jiqqa ho‘l bo‘lib
Oyoq-qo‘li go‘yo akashak,
Ovga ketdi, ochlik zo‘r kelib.
Butazorda ko‘rdi bir eshak.
Bo‘ri dedi: – Mana mo‘jiza!
Menga endi bo‘ladi maza!
Eshak esa chopqillab keldi:
– E, qayoqda yuribsan, oshna?
Seni izlab bo‘larim bo‘ldi!
Qonlarimga qilding-a tashna!
Topilding-e, bo‘ldi, xursandman:
Egam qizin erga bermoqda
Qudalarga osh berar ertan,
Seni oshga taklif qilmoqda.
Butun qishloq kelib, qizir to‘y,
Darang-durung yangrar ertaga.
So‘yilgandir oshga qirqta qo‘y,
Meni koyir, kelmasang, egam!
Og‘zin suvi keldi bo‘rining
Uncha o‘ylab turmadi uzoq:
– Egang yaqin bilarmi meni?
Ha, hurmatga loyiqman, o‘rtoq!
Lekin yomon ochgan bu qorin,
Yeb qo‘yarman o‘nta qo‘yini...
– Bo‘pti, oshna, qani, menga min
Qizitaylik borib to‘yini!
Minib oldi eshakka bo‘ri,
Yo‘l oldilar qishloqqa to‘g‘ri.
Eshak mingan bo‘rini ko‘rib,
Yosh-u qari chiqdi yugurib.
Kimda to‘qmoq, kimda panshaxa:
«To‘yga kelgan emish, vah-ha-ha!»



– Mana, senga non-tuz! Mana qo‘y!
Bo‘ri xitob qildi: – Shumi to‘y?
Muncha shovqin! To‘polon har yoq!
Nega muncha to‘qmog‘-u tayoq?
Qishloq ahli dediki shu choq:
– Bizda tartib shunaqa, o‘rtoq,
Bizda o‘zi odat shunaqa –
Qo‘lga nima tushsa, bo‘rini
O‘sha bilan uraveramiz,
Quritamiz uning sho‘rini,
Birga savab, qiraveramiz!
Kaltaklanib va cho‘loqlanib
Yetib keldi, hov ana ini.
Maysazorga yotdi yaslanib,
Changalladi urib boshini:
– Axir, muncha bo‘lmasang ahmoq,
Nega bording qishloqqa mundoq?!

AQLLI O‘G‘IL

Bir cholning uch nafar o‘g‘li bor edi,
Uchovi yetilgan jussador edi.
Bir kuni chol dedi o‘g‘illariga:
– Ertaga xo‘b bayram qilamiz birga.

Go‘shtli non bezaydi sufra ustini,
Kim birinchi bo‘lib ushatar uni?
– Men, – dedi to‘ng‘ichi chaqqonlik bilan, –
Chunki men bu yerda katta o‘g‘ilman.

– Yaxshi. Nonni yeymiz. Oldinma-ketin
Sufraga qo‘yaman pishgan qo‘y etin.

Kim birinchi olar qo‘yning etidan?
– Men! – der to‘ng‘ich o‘g‘il bu gap ketidan.

– Undan so‘ng bo‘ladi qovurilgan g‘oz.
– Uni ham men o‘zim qotiraman boz.
– Ertaga ertalab men bilan birga
Polizda ishlashga kim borar qirga?

To‘ngich o‘g‘il olg‘a tashladi odim:
– Nega ukalarim turishibdi jim?
Ulardan ham sal-pal sado chiqsin bir?
«Men», «men» deyaversam bo‘lmaydi axir!

QOPNING UKASI

Bir xizmatchi keldi bir boyga
Mardikor bo‘p ish qilish uchun.
Kelishdilar ular kunbayga:
Bir qop bug‘doy – kunlik ish uchun.
Xizmatchilar halollab non yer –
Hali quyosh chiqmasdan butkul.
Obdan bug‘doy yanchdi bosib ter,
Ish sog‘inib qolgan edi ul.
Shom tushganda kelib ko‘rsa boy,
Xizmatchisi uxlar omborda.
Qichqirdi u: – Jinnimisan, hoy!
Tur-e, kunning qizg‘in payti-ku!
– Qizg‘in payti? Yo‘g‘-e, ana oy!
Tezroq hisob-kitobni qiling!
– Oy-chi, – dedi javobiga boy,-
O‘z singlisi quyoshimizning.
Ishni davom ettir, shu – talab,
Hisob-kitob bo‘lar ertalab.

Shunday deya jo‘nadi ayyor.
Tunda ishlay qoldi mardikor
Va to‘xtadi botganida oy.
Boy bir qopga to‘latdi bug‘doy.
Yana bir qop tutdi mardikor:
– Bug‘doy soling bunga ham shu tob!
Qarang, qanday o‘xshashdir bular –
Manov qopning ukasi bu qop!

ESHAK

Bolgar hazili

Penkodan bir yon qo‘shnisi eshagini so‘radi,
– Eshagim yo‘q! – dedi Penko, unga kulib qaradi.
– Ana, hangrab turipti-ku, eshak kirib burchakka.
– Kimga ko‘proq ishonasan, mengami yo eshakka?

O‘QCHI

Bolgar hazili

Urushga otlandi bir kuni bolgar,
– Yoy olib, o‘q olmay... bo‘lgum der ilg‘or:
Ortiqcha yuk olib nima qilaman?
Dushmanning o‘qini tutib olaman.
– Netasan dushmaning o‘q otmasa, xo‘sh?
– Demak, urushmaymiz, bo‘lmaydi urush.

SOVG‘A

Bir qishloqda bir duradgor bor edi,
O‘g‘ilchasi doimo bekor edi.
Bir kun chorlab unga qildi bir imo:
– Senga sovg‘a bergum, – dedi, – bebaho!



Qishin-yozin, butun umr – hamma vaqt,
Senga, hatto, o‘g‘lingga ham berar baxt.
Va lekin bu sovg‘ani olmoq uchun, –
Dedi ota,– menga ko‘rsatgin kuching:
Taxta qirqish, silliqlashda yordam ber,
Devor qilib yonlamasi qator ter.
Ota-o‘g‘il ishladilar yonma-yon
Bir-birini yolg‘iz qo‘ymay hech qachon.
Bolta, arra, randalarni ishlatish
O‘g‘il uchun bo‘lib qoldi oddiy ish.
– O‘tib ketdi, ota, yoshlik yillarim.
Qani sovg‘a? Qani va’daga vafo?
– Egallading duradgorlik hunarin,
Senga bergan sovg‘am shudir bebaho.

UCH DARAXT

Tog‘lar etagida bir kun bahorda
Uch daraxt gaplashib qoldi nahorda.
– Yashashimiz zo‘r-a yorug‘ dunyoda,
Barglar-la sirlashar mayin shabboda.
Bizga tinmay kuylar mehribon ariq,
Bag‘rimizda qushlar aytishar qo‘shiq.
Kun siypar, yayraymiz yomg‘irli kunda,
Qanday yaxshi, hayot hali oldinda, –
Dedi daraxtlardan biri jilmayib.
Boshqasi e’tiroz bildirdi g‘arib:
– To‘g‘ri-yu, umrimiz emas-da uzun,
Bir daraxt kesuvchi keladi bir kun,
Tanimizga urar o‘tkir boltasin,
Jazolay boshlaydi, chiqarmay sasin.
Bir soat ichida parchalar bizni,
Hatto qazib olar ildizimizni.

O‘samiz, gullaymiz, o‘lamiz birdan...
Uchinchi daraxt der unga javoban:
– Hech bunday bo‘lmaydi, taqdir kulmasa,
Bolta bolta emas, sopi bo‘lmasa.
Ammo sop qilinar yog‘och-taxtadan,
Archami, emanmi, tol daraxtidan.
Daraxt kesuvchining tutib qo‘lini,
Qudratli devorday to‘sib yo‘lini,
Bermasak bitta ham shox-u butoqdan
Na biron chinordan, na bir yong‘oqdan –
Ildizlar chirmashsa biri-biriga.
Shoxlar ham maqtashsa biri-biriga,
Zich bir saf ichida tursa har daraxt,
Birlik-hamjihatlik keltirgaydir baxt.
Yerdagi daraxtlar bari tursa zich,
Hech bir kuch biz uchun bo‘lolmas qo‘rqinch.

POLSHA BOLALAR ADABIYOTI

ADAM MITSKEVICH



Adam Mitskevich polyak xalqining eng ulug‘ va sevimli shoiridir. U 1798-yilda Novoprudok shahri yaqinidagi Zaose degan qishloqda tug‘ildi. Otasi Nikolay Mitskevich oliy ma’lumotli advokat bo‘lib, kamsitilgan dehqonlar va o‘ziga o‘xshagan o‘rtahol mulkdorlarni yoqlab dong taratgan edi. U Zaosedagi o‘ziga meros qolgan bir necha dehqon uylari va karvonsaroyini sotib, Novoprudokdan tuzukkina bog‘i ham bo‘lgan katta uy sotib oldi. Adamning bolaligi o‘sha yerda o‘tdi. Otasi she’rni yaxshi ko‘rar, jahonning barcha buyuk shoirlari ijodini ham yaxshi bilardi. Hatto italyan shoiri Torkvato Tassoning dostonining bir qancha qismlarini yoddan bilar, o‘zi ham she’r yozardi. Ularni gazeta-jurnallarda chiqarmagan bo‘lsa ham, Novoprudok aslzodalari orasida muvaffaqiyat qozongan edi. O‘zi otashin vatansevar, bolalarini ham el-yurt sevgisi ruhida tarbiyalar edi.

Yosh Adamning ruhiy olamida faqat bugina emas, bu shaharning chiroyli manzaralari, tevarakdagi o‘rmonlari, yam-yashil tepaliklari, qadimgi qahramonlar ko‘milgan Mendog tog‘ining etaklari chuqur iz qoldirgan edi – bularning hammasi bo‘lg‘uvsi shoirning yosh tasavvurini hayajonga solar edi. Bu yerdagi keksalarning fantastik hikoyalari uning es-hushini olib qo‘ygan edi. Dehqon qizlar

aytadigan xalq qo‘shiqlari o‘zining jozibasi va jarangdorligi bilan uni maftun etardi.

Adam 9 yoshida shu yerdagi diniy maktabga o‘qishga kirdi. Polyak milliy she’riyatini qattiq qiziqish bilan o‘rgandi.

Yo‘l-yo‘lakay o‘zbek o‘quvchilariga bir narsani eslatib qo‘yishni lozim ko‘rdim. Sharq mamlakatlarida – arab, fors va turk ellari ilgarilar polyaklarni leh, Polshani Lehiston der edilar. Polsha, polyak degan so‘zlar bizga keyinchalik XIX va XX asrlarda kirib kelgan. Shu sababli eski davrlar hayotidan yozilgan she’rlarni tarjima qilganda men ham eski so‘zlardan foydalandim.

Adam diniy maktabida o‘qib yurgan chog‘laridan she’r yoza boshladi. Masalan 1810-yilda shaharda yuz bergan yong‘in munosabati bilan shu haqda uzun bir she’r yozgan edi. 1812-yilda Adamning otasi vafot etdi. Oila hayotida vujudga kelgan qiyinchiliklarga qaramay, 1815-yilda maktabni bitirdi va Vilno universitetiga kirdi. Uni 1819-yilda tamomladi va u Kovno shahriga o‘qituvchi qilib yuborildi.

Universitetda o‘qigan yillarida Kovnodagi o‘qituvchilik chog‘-larida u yoshlarning ozodlik harakatlarida ishtirok etdi, vatan va xalq ozodligi mavzularida ko‘plab she’rlar yozdi. Ayniqsa uning 1820-yilda yozgan «Yoshlikka qasida»si katta shuhrat qozondi. Bu asari yoshlarning gimniga aylanib ketdi. Gap shundaki, 1795-yilda Avstriya va Rossiya birgalikda Pospolitaya Rech nomli polyaklar va litvaliklarning davlatini parchalagan, Rossiya Polshani o‘ziga qo‘shib olgan edi. Endigi yoshlar vatanni rus istibdodidan qutqarish uchun kurashmoqda edilar. Mitskevich yana bu yillarda «Novogrudok knyazi, Meshko», «Kartofel» dostonlarini yozgandi, 1822-yilda «Poeziya» va «Ballada va romanslar» degan kitoblari nashr etilib, ular polyak she’riyatida burilish yo‘lini boshlab berdi. «Poeziya»ga kirgan «Dzyadlar» degan dostoni bilan Mitskevich Yevropa adabiyotining ulug‘ shoirlari Gyote, Bayronlar qatoridan o‘rin oldi.

1823-yilda Rossiya, yoshlarning ozodlik harakatini bosh-qaruvchi to‘garakni fosh qildi, hamma a’zolar qamoqqa olindi,

Mitskevich esa Rossiya ichkarisiga surgun qilindi. Ammo ulug‘ rus demokrat shoirlari Mitskevichni o‘z qanotlari ostiga oldilar. Pushkin, Vyazemskiy, Kozlov, Baratinskiy, Polevoy kabilar uning she’rlarini ruschaga tarjima qildilar va ketma-ket gazeta va jurnallarda e’lon qilib bordilar. Pushkin u haqda: «Qanday daho! Qanday muqaddas otash! Uning oldida nimaman men?» degan edi.

Mitskevich Rossiyada to‘rt yarim yil yashadi. 1829-yilda Vataniga qaytgach, Germaniya, Shveysariya, Italiyaga sayohat qildi. «Moskvalik do‘stlarga» (1832), «Qrim sonetlari» (1825), «Sonetlar» (1826) kabi asarlarini e’lon qildi. «Konrad Vallenrod» (1828) kabi bir qator tarixiy she’riy-asarlar yozdi. «Dzyadlar» dostonining yangi-yangi kitoblarida polyak vatansevarlarining Rossiyadagi azob-uqubatlarini shunday yozdiki, bu asari aslida Rossiya mustabidligiga pamflet bo‘lib yangradi. Uning «Pan Taduesh» dostoni polyak xalqining milliy epopeyasi bo‘lib qoldi.

Mitskevich 1855-yilda Turkiyaga keldi, rus-turk urushi paytida turk tomoni uchun polyak legionlari tuzishga kirishayotgan edi. Ammo, afsuski, Istanbulda vabo kasaliga duchor bo‘lib, shu yili 26-noyabrda vafot etdi. 1856-yil 21-yanvarda uning xoki Parijga keltirilib, Monmoransi qabristoniga dafn etildi. 1890-yilda qoldiqlari Polshaga keltirilib Krakovga, qadimiy qasr etagiga qo‘yildi.

Mitskevich maxsus bolalar shoiri bo‘lmasa ham, uning juda ko‘p asarlarini bolalarga tavsiya qilish lozim bo‘ladi. Shuning uchun ham Moskvadagi rus bolalar nashriyoti Adam Mitskevichning «Tanlangan asarlari»ni (Detgiz, 1955) chop etgan. Biz shu to‘plamdan olingan ayrim she’rlarini e’tiboringizga havola etdik.

She‘rlar

ADAMNING QO‘SHIG‘I

Boshda toj! Ko‘ngillar to‘q!
Quchoqni keng ochaylik!
Oramizda yotlar yo‘q!

Og‘a-inimiz birdek!
Aldov, yolg‘on, tanballik
Joy topmas oramizdan.
Birligimiz tamali –
Vatan, mardlik, ilm-fan.

Kishanlarni uzamiz,
Hislar ochiq va ulug‘.
Bizning odil so‘zimiz
Toppa-toza va qutlug‘.

Do‘stlik azobni yengar,
Shodlik do‘stlikni toblar.
Dam olishda yo ishda,
Xursandchilik, tashvishda
Omoch uzra yo taxtda,
Yoddan tursin qoida.

Ontni unutma faqat,
Ular – va’da, kafolat,
Bu so‘zlar tug‘day qutlug‘
Vatan, mardlik, ilm-fan .

Boramiz manzilgacha,
Yo‘qdir to‘siqdan qo‘rqish.
Yengar har qanday xavfni
Og‘aynilik, mardlik, ish.

ODAMLAR VA BOYQUSHLAR

Dalada uy yuksaldi yop-yorug‘, ko‘ngilga xush,
Yonida kunduz – baqa, tunda yashardi boyqush.
«Yangi uy menga bo‘lar!» derdi qush uyqusirab.



«Bunda men yashayman!» deb baqa pishillar esnab.
Bir odam der: «Boyqushlar yashaydi vayronada!
Baqalar yashar kovak qorong‘i, tor xonada.
Yorug‘, go‘zal uylarda joy yo‘q churvaqalarga
Xususan hech berilmas boyqushlar, baqalarga!»

DO‘STLAR

Chin do‘stlikni ko‘rmadim qancha kezsam-da dunyo,
Oshmon shahrida bir tur do‘stlikni ko‘rdim ammo.
U yerda ikki oshna bor ekan ko‘z-u qoshdek,
Birining oti Mashek, birining oti Lashek.

Men men emas, men sen-u, sen mensan der ekanlar,
Hatto bitta yovg‘onni bo‘lishib yeyarkanlar.
Yong‘oqni ham, donni ham bo‘lishib urarkanlar, –
Qutlug‘ do‘stlikni shunday avaylab yurarkanlar.

Men o‘zim bunday do‘stlik yo‘q deyman hali-hamon
Hech bir sayyoradan ham topmassan undan nishon.
Ular bizning do‘stlikday do‘stlik yo‘q, deb jahonda
Bir kun hangomalashib qolishdi bir o‘rmonda.

Qarg‘alar uchar edi, kukulardi kakkular,
Birdan qo‘shni tarafda nedir mo‘-mo‘, mo‘-mo‘lar.
Mashek chiqdi emanga, xavfdan bo‘lay deb yiroq:
Qizilishtonday chaqqon qochar butoqma-butoq.

Lashek esa dovdirar «Qo‘lni uzat, oshna!» deb
Oshnasi eng tepaga chiqardi shoxni tutib.
Lashek nafas yutgancha yotib oldi etmay miq,
Zumda uning boshiga yetib ham keldi ayiq.

Vujudni ushlab ko‘rdi, shunda burniga urdi
Yomon bir hidki shunday, qo‘rqqan odamda bunday

Hid bo‘lar... Ayiq buni eski o‘lik ekan deb
Ketdi o‘xchib yirganib, o‘kirar edi hadeb...

Jiyirgan burnin yuvdi o‘rmonning ariqlari.
Sassiq etni xushlamas Litvaning ayiqlari.
«Oh, Lashekjon, do‘stginam! Omon qolding, baxtliman! –
Mashek unga qichqirdi eman daraxt «taxtidan» –

U pixillab ustingda lekin turdi-ya uzoq,
Qulog‘ingga shivirlab nimalar dedi, o‘rtoq?»
«Ayiqlar maqolini eslatdi engashganda,
Do‘st bilinar, dedi u, boshga kulfat tushganda».

ESHAK BILAN KO‘PPAK

Ey eshak, ko‘ppak seni do‘st bilsin, desang,
Sen ham unga do‘stlik qil, aqlli esang.
Eshak buni bilardi, kap-katta edi,
Fikrsiz, qo‘rqoq edi, shundan pand yedi.
Axir u jazolandi va topdi o‘lim,
Hayvonlarga foydadan beraman ta’lim.
Katta xurjunlar bilan bir kuni eshak,
Egasining ketidan borardi quldak.
Xo‘jayin narsalarin qo‘riqlab ko‘ppak
Kelar edi chang yo‘lda
Gohi o‘ng qo‘lda, gohida so‘lda.
Yaxshi qorovul edi ajoyib ko‘ppak,
Uning izmida edi kap-katta eshak.
Tilini osiltirib o‘ynoqlab goho,
Eshak mudramay, tetik yursin, deb goho
Vovullab ham qo‘yardi dumin o‘ynatib,
Uni qopmasdi ammo.
Yo‘l yurishdi, mo‘l yurishdi.

Issiqda horib, daraxt tagiga borib,
Yonboshladi xo‘jayin va otdi xurrak.
Shuni kutib turgandi tinchi yo‘q eshak:
Chimzordan chim totishga kirishdi andak.
Tuyoqlarning orasin qirtishlab chunon,
«Ho‘p» eta chuqur osha sakradi chaqqon –
To‘g‘ri o‘tloqqa tushdi, xo‘jayin qoldi,
Tuyoqlarin sabrsiz tez ishga soldi.
Xo‘jayinga tirjayib tashladi nazar:
«Uxlang, xo‘jayin, uxlang! Uyqu xo‘p go‘zal!
Soyangizda bizlar ham davron suraylik,
Bu go‘zal bedalarni totib ko‘raylik!»
Zorlandi horigancha kelarkan ko‘ppak:
«Mazam yo‘q, tongdan beri nahorman, eshak,
Sening yuking dudlangan et bilan to‘la,
Hech bo‘lmasa ustini bir marta yalay.
Bu ish hech qiyin emas,
Sen tizzangni bukib tur,
Men qo‘limni uzatay...Xo‘pmi, o‘ylab ko‘r»
Devorga gapirganday bo‘ldi bu lekin,
Bedadan bosh ko‘tarmay eshak der sekin:
«Xo‘jayin uyg‘onsalar, o‘zlari beradilar...»
«Bormi javob, yo‘qmi savob? »
«Bo‘lmag‘ur gaplarni ko‘p so‘ylaysan»dedi.
O‘zi esa to‘xtamay beda yer edi.
Kelib qoldi shu asno tepaga biri –
Ko‘zlari shamchiroqdan yonib bir bo‘ri.
Qulog‘in dirkillatdi zo‘r berib eshak:
«Ey do‘stim, asra meni! O‘limdan qutqar!»
«Men sening qutqaruvching emasman zinhor!
Bekorlarga hangrama, toptab bedani.
Xo‘jayin uyqusidan uyg‘onsa seni
Tirik saqlab qolishni boplab qotirar!»
Shu onda bo‘ri unga tishin botirar.

BOYCHECHAK

Bo‘zto‘rg‘ay churchuridan
Yangraganda tevarak
Qirni qopladi birdan
Bahor guli – boychechak.

Men
Erta uyg‘onding, erta,
Hali bor qishning qori,
Hali unmadi novda,
Tog‘da – tuman mog‘ori.

Ko‘zlaringni yum darrov,
Egning ichiga bekin.
Shudring, ignali qirov
Seni halok qilmasin.

Boychechak
Kapalakday kunduzi
Yashab, shomda o‘lamiz.
Qishning tunlari uzun,
Bahor onlari aziz.

Quvontirging bor yorni,
Unga gul berging kelar
Mendan go‘zal gul bormi
Qay gul menga teng kelar?

Men
Sen zaif o‘tlar ichra
Mungli yerda bo‘ylanding.
Bo‘ying past, ranging xira,

Nimangga g‘ururlanding?
Na gulday qizil ranging,
Nilufarday egning bor,
Na loladay pok sallang
Ko‘zlarni aylar xumor,

Gulchambar qildim seni,
Xayolga toldim lekin:
Sodda go‘zalligingni
Yorim yoqtirarmikin?

Boychechak

Do‘stlaring etgum asir,
Men bahor chaqmog‘iman.
Do‘stlikka barq zarurdir,
Ammo bu yashiringan.
Oh, Marilya, jon do‘stim,
Sovg‘asin ol og‘angning.
Yo bahorgi ilk barqim
To‘ktirarmi ko‘z yoshing?

YULIYAN TUVIM



Yuliyan Tuvim – XX asrda yashagan, Polsha xalqi chin dildan sevadigan va butun dunyoda ham yuksak qadrlanadigan ijodkordir.

«Tuvimning she'rlari bizda qoldirgan taassurotlarini hech nima bilan qiyoslab bo'lmaydi. Biz hammamiz uni hech qanday o'tirozsiz yangi davr polyak adabiyotining boshlanishi sifatida qabul qilganmiz», deydi polyak yozuvchisi Yaroslav Ivashkevich. Polyak tanqidchisi Matushevski: «Polsha adabiyotida bolalar uchun yozilgan she'rlar orasida unga teng keladigani yo'q», deb yozgan edi.

Yuliyan Tuvim 1894-yilda Lodz shahrida tug'ildi. Gimnaziyada o'qidi, ana shu o'quvchilik yillaridanoq she'rlar yoza boshladi.

Varshava universitetining huquqshunoslik va falsafa fakultetlarida tahsil oldi. 1913-yilda «Iltimos» degan birinchi she'ri chiqdi. Ilk she'riy to'plami 1918-yilda nashr etildi. She'rlaridagi vatanparvarlik ruhi tufayli bu to'plam xalqning muhabbatini qozondi. Ikkinchi Jahon urushi boshlangunga qadar uning yana 8 ta to'plami chiqarildi. 1939-yilda Polshani fashistlar bosib olganda Tuvim Ruminiyaga, keyin Yugoslaviyaga, u yerdan Italiyaga, so'ng Fransiyaga ketdi, yurtma-yurt darbadarlikda yashadi. 1940-yilda Portugaliyaga, so'ng Braziliyaga ketdi. 1943-yilda Nyu-Yorkda qo'nim topdi. Taraqqiyparvar yozuvchilar safiga qo'shildi,

1946-yilda Varshavaga qaytdi. U o‘zi bilan birga bebaho bir sovg‘a – «Polsha gullari» dostonini olib keldi.

U kattalar uchun she’riyatning hamma turlarida she’rlar yozdi. Ayniqsa chuqur lirizm va yorug‘ falsafiy g‘oyalar bilan sug‘orilgan she’rlari bilan polyak she’riyatining yetakchisiga aylandi. Axloq va urf-odatlar, ma’rifat, til va adabiyot haqida kitoblar chiqardi. Tuvim bolalar uchun 40 ta asar yozib qoldirdi. Urushdan oldin chiqarilgan «Lokomotiv» (1938), «Pan Trulyanskiy haqida» (1938), «Fil Trombalskiy» (1938) kabi kitoblari va urushdan keyin yozgan «Hamma narsa hammaga», «Stol», «Bambo», «4 fasl», «Yanek haqida», «Zosya – men o‘zim», «Yolg‘onchi Grisha va uning ammasi haqida» kabi she’r va to‘plamlari bolalar orasida juda keng ommalashgan edi. Yuliyan Tuvim 1951-yilda Polsha Xalq Respublikasining Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgandi.

U 1953-yilda 59 yoshida vafot etdi. Shoir jahon shoirlarining talay asarlarini polyakchaga tarjima qilgan edi. Uning asarlari esa o‘z navbatida juda ko‘p jahon tillariga tarjima qilingan. Ayrim she’rlari o‘zbek vaqtli matbuotida ham bosilgan.

She’rlar

YANGI HARFLAR

– Voy! – dedi u.
Nima bo‘ldi?
Engashyapti etakka?!
Qo‘lidagi bir g‘ilof harf
Tushib ketdi yo‘lakka.

Essizgina! «M» harfining
Sinibdi o‘ng oyog‘i,
«G‘» lat yebdi sag‘algina,
«F»ning yo‘q-ku belbog‘i!
Voy, bechora «O» harfi-yey,



Sochilibdi har yoqqa.
Ustidagi belgisi yo‘q,
Yo‘qolibdi qayoqqa?
«Y»ning dumi uzilibdi
Kichik «v»ga aylanib.
«S» belidan sinib turar
Bir-biriga boylanib.

«A»ni esa tanib bo‘lmas,
Na belbog‘, na yoni bor.
Teskari «1»bo‘p qopti-ku
Anavi «R»jonivor.

Harflar endi aylanadi
Supurindi yo kulga.
Mayib-majruh harflar axir
Arzimaydi bir pulga.

SABZAVOT

Oyim o‘tib guzardan
Olib keldi bozordan:
Kartoshka,
Karam,
Sabzi,
No‘xot,
Qizil lavlagi,
Barra ko‘k piyoz –
Yoz maza-da, yoz!
Qay birimiz yaxshi, der,
Dasturxonning naqshi, der:
Kartoshka,
Karam,

Sabzi?
No‘xot,
Qizil lavlagi?
Barra ko‘k piyoz!–
Talashdi biroz...
Pichog‘-u qiyma taxta,
To‘g‘raldi shartta-shartta:
Kartoshka,
Karam,
Sabzi
Hamda
Qizil lavlagi,
Barra ko‘k piyoz...
Tinchidi gap-so‘z.
Qozonga tushib bir-bir,
Qaynadi vaqir-vuqir:
Kartoshka,
Karam,
Sabzi,
No‘xot,
Qizil lavlagi,
Barra ko‘k piyoz –
Qandoq maza yoz!

JUDA KERAKLI BIR ISH YUZASIDAN HAMMA BOLALARGA XAT

– Ey, azizlar, bolajonlar!
Yozayapman sizga xat:
Yuz-qo‘lni tez yuvib turing,
Iltimosim shu faqat.

Qaynagan suv, buloq suvi,
Mayli bo‘lsin u yomg‘ir,

Quduqdanmi, daryodanmi,
Yuvininglar bari bir.

Uyqu oldi, uyqudan so‘ng,
Har gal yemak oldidan,
Tongda, shomda, peshinda ham
Yuvining sovun bilan.

Ishqag‘ich va yuvg‘ich ishqang,
Bu ish og‘ir emas-ku!
Siyoh bilan murabboni
Yuvar sovun bilan suv.

Ey, azizlar, bolajonlar,
Chin yurakdan so‘rayman:
Sof yuvining, ko‘p yuvining –
Irkitlarni sevmayman.

Ko‘rishmayman kirlar bilan,
Kir uylarga kirmayman.
O‘zim doim yuvinaman...
Xayr. Tuvim Yuliyan.

YANEK DEGAN BOLA HAQIDA

Yanek degan bola bor,
Ishi aqlsiz.
G‘alati yumush qilar –
Qrab turing siz.

Qushga bunday uch, deya
Qush g‘amin yeydi.
Temirchiga mushugimni
Taqalang, deydi.

Suv keltiray, deb oladi
Elak yo xalta.
Bir pashshani o‘ldirgani
Opkelar bolta.

O‘tin eltar o‘rmonga u
Kesar butoqlar.
Uyga axlat olib ketar –
Qoplab, quchoqlab.

Qish paytida muzlar yig‘ib
Uycha qurdi u.
«Bahor kelsa dala uyim
Bo‘lar, deydi, bu!»

Saratonda peshin chog‘i
Puf-puflar kunga.
Ot charchasa, kursi berib,
O‘tir, der bunga!

Bir kunim u bir tangaga
Berdi yuz so‘m pul.
Yanek tentak bola edi,
Bor-yo‘q gapim shul.

KO‘ZOYNAK QAYGA KETDI?

– Nima bo‘ldi? Valya xola nega ovora?
Ko‘zoynagin yo‘qotibdi xola bechora!

Goh oldidan, goh ortidan, yostiq tagidan,
Bir qidirar g‘ilofidan, bir cho‘ntagidan.

Bir qidirar boshlarini ko‘rpaga tiqib,
Hammayoqni timirskilar, o‘rnini yiqib.

Qaramagan na javon-u na elak qoldi,
Na botinka, na-da kovush, na shippak qoldi.

Butun uyni ostin-ustun qilib tashladi,
So‘ng o‘tirdi. O‘tirgancha o‘ylay boshladi.

Bir xo‘rsindi, bir vaysadi, qobog‘i uchdi.
Uy ichini yana qayta titishga tushdi.

Yostig‘ining ichlariga qo‘lini tiqdi.
Qutichasin ko‘rayin deb, birdan oshiqdi.

Shag‘am yoqib oshxonani yoritdi tezdan,
Shag‘am bilan o‘choqni ham kechirdi ko‘zdan.

Qaznoqni ham qarab chiqdi takror va takror –
Ammo bari bekor edi, hammasi bekor!

Valya xola javrar edi xo‘p jig‘ibiyron:
Uni kimdir o‘g‘irlagan, hammasi ayon!

Ruhi tushib sandig‘iga o‘tirdi yana.
Yon tomonda osilgancha turardi oyna.

Ko‘rdi o‘zin: bo‘ldi shunda hammasi oydin,
Izlamabdi ko‘zoynagin kerakli joydan.

Yo‘qolmabdi ko‘zoynagi o‘z xonasida,
O‘rnashgancha turar edi peshonasida.

Xola mamnun – oddiygina tosh oyna shu dam
Ko‘zoynagin topishida berdi-ya yordam!

KECHIKKAN OTA BULBUL

Yig‘lar, yig‘lar ona bulbul
Ko‘z yoshi bo‘lib daryo.
Kelmay qoldi ota bulbul,
Yemak esa muhayyo.

Oqshom soat to‘qqizda
Uyga kelardi har vaqt.
Soat o‘n ikki bo‘ldi,
Kelmadi bu gal barvaqt.

O‘nta tilla pashshadan
Kaboblar pishgan edi.
Qo‘lbola chivin palov
«Kosa»ga tushgan edi.

Hammasi sovib qoldi,
Nega yo‘q ota bulbul?
Kasal bo‘lib qoldimi,
Yo‘lda bo‘ldimi ul-bul?

Surbet, ochko‘z maynalar
Yo‘lini to‘sdimikin?
Ovozini o‘g‘irlab,
Qanotin kesdimikin?

Voy-ey, kep qoldi o‘zi,
Omon ekan, xayriyat!
Hushtak chalar va sakrar,
Hech joyi yemabdi lat.

Qaylarda uchib yurding,
Qaylarda pirillading?

Qo‘rqib ketdim men, axir,
Yig‘ladim, zirilladim.

– Kechir, – der ota bulbul,
Chah-chah urib samoda, –
Tun go‘zal, bitta-bitta
Yurgim keldi piyoda.

QUSHLAR RADIOSI

Diqqat! Do‘stlar, marhabo!
Bugundan boshlab har kun
Hamma o‘rmonlar uchun
Ish boshlaydi radio!

Diqqat! Diqqat!
Studiyaga shu vaqt
Qushlar uchib kelishgan,
Yig‘in tayin qilishgan!

Birinchi masalamiz:
Shudringdan qaysi chog‘da
Qilinsa istifoda
Foyda bo‘lar ziyoda?

Ikkinchi masalamiz
«Sado» muammosidir.
Sado bormi o‘rmonda?
Bo‘lsa u qay tomonda?

Uchinchi masalani
Ko‘tarar Qorayaloq.
Qushlar inin ta’mirin
Kuzatar bugundanoq.

Keyin muzokaralar
Boshlanib ketar ochiq:
Biyov-biyov, qar-qar,
Chur-chur va chiriq-chiriq.

So‘zga chiqadi mayna,
Chittak, sa’va, boyqushlar,
So‘zga chiqadi hamma –
Tanilgan barcha qushlar.

Diqqat! Do‘stlar, marhabo!
Bugundan boshlab har kun
Hamma o‘rmonlar uchun
Ish boshladi radio!

Bizning priyomnigimiz
Soat bo‘lganida besh
Yuzlarcha ovozlarni
Tuta boshlar peshma-pesh:

«Fiur-fiur! Fyu-fyu-fyu!
Chiriq-chiriq! Tyu-tyu-tyu!
Pyu-pyu! Viyt-viyt-viyt!
Chivi-chivi! Tiyt-tiyt-tiyt!

Qotib qoldik biz lekin!
Nima qilsak bo‘larkin?
Bizga emas-ku bular –
Kelayotgan sadolar!

YAN BJEXVA



Polyak yozuvchisi Yan Lesman 1900-yilda G‘arbiy Ukrainada tug‘ilgan (Ikkinchi Jahon urushidan oldin u yerlar Polshaga qarardi) va 66 yil umr ko‘rgandi. U o‘ziga Bjexva degan taxallusni tanladi – bu «Safsataboz» yoki «Masxaraboz», «Hazilkash-qiziqchi» degan ma’nolarda ishlatiladi. U birinchi she’rlarini 15 yoshida «Znamiya» («Bayroq») jurnalida e’lon qilgandi. Polshani fashistlar bosib olgan paytlarida Yan Bjexva kattalar uchun beshta, bolalar uchun ikkita she’riy to‘plamini nashr ettirgandi. Bolalarga atalgan kitoblari «Nina bilan ipning raqsi» (1938), «Telba o‘rdak» (1939) deb atalardi.

Urushdan keyin Bjexva bolalar uchun ijod qiluvchi eng mashhur yozuvchiga aylandi, uning asarlari ko‘p tillarga tarjima qilinib, jahonga tanildi. 1959-yilda bolalar shoiri sifatida Davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi. Uning kichkintoylarga atalgan so‘nggi kitobi «Kulsa arziydi» (1965) deb atalardi.

Yan Bjexva asosan masal, ertak, hazil, kulgili she’rlari yozardi. U faqat polyak xalq ijodiyotini emas butun dunyo og‘zaki ijodiyotini ham sinchiklab o‘rgangandi. Ingliz bolalar xalq she’rlarini esa polyakchaga tarjima qilgan edi. Yan Bjexva eng kichik yoshdagi bolalardan tortib, o‘smir yoshdagilargacha mo‘ljallangan turli-tuman she’riy ertaklar, ertak-dostonlar, she’riy qissalar yaratdi.



«Qirol va Masxaraboz», «Qaroqchi Pelemon», «Doremi janoblari va uning yetti qizi», «Linza janoblari qalin o‘rmonda», «Linza janoblari ummon tagida», «Linza janoblari oyda» kabi asarlari shular jumlasidandir.

Yan Bjexva bolalarga nasriy asarlar ham yozdi, shulardan biri – «Dog‘ janoblarining akademiyasi» o‘zbek bolalar adabiyotining zahmatkash tarjimoni Erkin Siddiqov tomonidan o‘zbekchaga o‘girilgan.

Yan Bjexva o‘z she’rlarida hayvonlar, qushlar, hasharotlar va bolalarga yaxshi tanish bo‘lgan uy-ro‘zg‘or buyumlarini turli munosabatlarga kiritadi. Pand-nasihatlardan qochadi, ko‘proq kulgi vositasidan foydalanadi. Mubolag‘a, so‘z o‘yini, qofiya san’atidan mohirona foydalanadi. Vazn, kombinatsiya, turoq she’rlarida muhim rol o‘ynaydi.

She’rlar

UFQ OROLLARIDA

Olimlarning aytishicha,
Ufq orollarida,
Hamma boshda yurar ekan –
Yosh bola-da, qari-da!

O‘sha yerda yashar ekan,
Uch kallali Kashalot –
Royal chalib, raqs tusharkan
Qo‘shiq aytib azamat.

Samokatda, tog‘dan pastga
Tushar ekan o‘nta ot!
Bir alloma Mushuk esa,
Boshqararkan vertolyot.

Tolda noklar, shokolad-u
Marmeladlar pisharkan.
Dengiz uzra, yerdagidek
Quyonlar raqs tusharkan.

Maktablarda, kattalarga
Dars berarkan bolalar.
Qisqasi, u orollarda
Bo‘larkan har balolar.

Goho menga alam qilib
Ichim achiydi jiz-jiz.
U orolga borish yo‘lin
Na siz, na men bilamiz.

TYULEN QANDAY TYULEN BO‘LGAN?

Buni qarang, qarang buni –
Shuyam ish bo‘ptimi-a?
Tyulenning po‘stinini
Yamlab ketibdi kuya!

Qahratonda sho‘rlik Tyulen
Yalangoyoq, yalang‘och
Qolib, chopdi qo‘shnilarga
Topish uchun bir iloj.

Yolvordi u Yenotga:
– Qo‘lingni cho‘z hojatga –
Bir hafta po‘stiningni
Berib turgin, og‘ayni!

Yenot dedi g‘arazsiz:
– Po‘stin o‘zimga aziz.

Qishda po‘stinsiz yurish
Qiyin, og‘aynichalish.

Tyulen bordi Qunduzga,
Qunduz chopmadi yuzga,
Faqat dediki: – Inim,
O‘zi bitta po‘stinim...

Tyulen bordi Tulkiga,
Tulki olib kulgiga:
– Bor, – dedi, – Tyulen oshnam,
Bo‘ridan so‘ra yordam!

Tyulen dedi: – Og‘ayni,
Bo‘riga yem bo‘laymi?
Yo‘q, morjga bora qolay,
Po‘stin qarz ola qolay.

Morj aytdi gapning rostin:
– Kim senga berar po‘stin?
Bu yil sovuq keldi qish,
Qara, qanday urar nish.

Chindan ham Tyulen sho‘rlik
Vaj aytib turlik-turlik
Bordi sassiq Kuzanga,
Keyin qora Kuzanga,

Bordi Tipratikonga,
So‘ng yovvoyi Qulonga.
Olmaxon-u Suvsar ham
Hech kim bermadi yordam.

O‘z ulfati Bo‘rsiq ham
Javob berdi g‘alati:

Do‘stim, vaqtim juda ziq,
Gaplashishga vaqtim yo‘q.

Kalamushning kattasi –
Sichqonning qaynotasi –
Badavlat va zo‘ravon
Opossum degan hayvon

Tars yetkazdi eshigin,
Yopib qo‘ydi teshigin.
Tyulen bu ostonada
Turardi bo‘lib zada:

– Yo Xudo! Bu hayvonlar,
Shuncha do‘st-u yoronlar,
Quloq tutmay unimga,
Yarashmadi kunimga.
Munchalar bular hissiz –
Biri biridan xasis.

Tyulenda qolmay iloj
Uyga qaytishdan o‘zga
Qiyqim terilar terib
Eltdi bir Mo‘ynado‘zga.

Bichdi Mo‘ynado‘z,
Qiydi Mo‘ynado‘z
U yog‘in o‘lchab,
Bu yog‘in o‘lchab
Tikdi Mo‘ynado‘z.

Unnaldi,
Biroq
Tikkan po‘stini
Chiqdi kichikroq.

U po‘stin emas,
Po‘stincha edi.
Po‘stincha emas,
Bir nimcha edi.

Tyulen kun bo‘yi
Tortib nimchani
Uladi hatto
Kunga kechani.

Tugmasi arang
Ilmoqqa yetdi,
Yurganda u ham
Yirilib ketdi.

Tyulen o‘xshab xo‘rozga
Qichqirdi Mo‘ynado‘zga:
– Shumi sening do‘stliging,
Kalta-ku bu po‘stining!
Oldi oldiga kelmas,
Kiysang hech yurib bo‘lmas!

–Siz odammas, Tyulensiz, –
Dedi Mo‘nado‘z ayyor, –
Bemalol suzavering!
Sizga yurish ne darkor?

PISHLOQ TESHIKCHALARI

Kimdan chiqdi bu qiliq?
Kim bu ishni boshladi?
Kim pishloqni ilma-teshik,
Kavak qilib tashladi?

Xir-xir qilib:
– Men emas! –
Dedi Cho‘chqa yaramas.

Bo‘ynin cho‘zib
Daroz-daroz:
– G‘a-g‘a-lati! –
Dedi G‘oz.

Qo‘zi derki:
– Ajabo!
Ma-ma, mana
Muammo!

So‘ranglar-chi
Serkadan,
Juda tez berar yordam.

Akillab dedi Kuchuk:
– Bu ishni qilgan Mushuk!
Timdalagan, qashlagan,
Teshik qilib tashlagan.

Achchig‘i kelib Mushuk
Pishqirdi. Tomdan tushib:
– Har yoqni teshib yurish –
Sichqon qiladigan ish!
Xudoning amri bilan
Kelib qoldi bir qarg‘a,
Qanoti ola emas,
Qora edi sidirg‘a.

– Qarg‘a dono bo‘ladi,
Pishloq nima – biladi!



Kim teshgan, bilib bersin,
Ishni hal qilib bersin!..

Qarg‘a esa pishloqning
Cho‘qib har bir teshigin,
Kengaytira boshladi,–
G‘ayrat bilan ishladi.

Qarabsizki, qolmadi
Pishloqdan nom-u nishon.
Hayvonlar hovlisida
Boshlandi shovqin-suron:

– Iye bu qanaqasi?
Talonchilik! O‘g‘rilik! –
Qarg‘a qo‘nib devorga
Der: – Mana, noshukrlik!

Siz pishloqni qo‘limga
Berdingizmi – berdingiz.
Teshiklarin ko‘rib ber,
Dedingizmi – dedingiz.

Nega pishloqni yesam
Solasiz endi suron?
Teshiklari qoldi-ku
Ko‘rmasdan zahmat-ziyon?! –

Shunday qilib bitdi bahs,
Lekin dunyoda hech kas,
Pishloqdagi teshiklar,
Qaydan kelganin bilmas.

CHEXIYA BOLALAR ADABIYOTI

VITEZSLAV NEZVAL



XIX asrda chex she'riyatining Karel Ginek Maxa, Yan Neruda kabi milliy daholari bor edi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Brzejin, Sova, Bezruch, Neyman singari ajoyib iste'dod sohiblari faoliyat ko'rsatgandilar. Vitezslav Nezval esa XX asr o'rtalariga kelib chex she'ri shuhratini ilk bora chinakamiga dunyo miqyosiga olib chiqqan buyuk shoirdir. Uning bolalar uchun yozgan asarlari, kattalar uchun yozganlari kabi, adabiyot olamida yirik hodisadir, deyishadi adabiyotshunoslar.

Vitezslav Nezval 1900-yilda Moraviyaning Biskoupki qishlog'ida tug'ilib, 1958-yilda Chexoslavakiya (hozirgi Chexiya) ning Praga shahrida vafot etgan. Otasi qishloq o'qituvchisi edi. Trshebich shahrida gimnaziyani tamomladi. 1918-yilda harbiy xizmatda bo'ldi. 1919-yilda Brno shahridagi universitetning huquqshunoslik fakultetida o'qidi.1920-yilda Karlovo universitetining falsafa fakultetiga o'tdi.

1922-yilda nashr etilgan birinchi she'riy to'plami «Ko'prik» deb atalardi. Keyin «Pantomima» (1924), «Kichkina gulbog'» (1926), «Qabrlardagi yozuvlar» (1927) kabi kitoblari bosilib chiqdi. «Edison» (1828) nomli lirik dostonida insonning ijodiy jasoratini

ulug‘laydi. Nezvalning bu dostoni haqida atoqli turk shoiri Nozim Hikmat «XX asr she’riyatining cho‘qqilaridan biri» deb yozgan edi. «Zamon signali» (1831), «Besh barmoq» (1932), «Qaytish chiptasi» (1933) kabi she’riy to‘plamlarida insonning qadri, moddiy va ma’naviy hayotidagi turli ziddiyatlar, mehnatkashlar olamining halol hayoti haqida fikr yuritadi.

Nezval: «Bola, atrofidagi dunyoni qabul qilishda shoirga o‘xshaydi», deb ta’kidlagan edi. Uning «Bolalar uchun narsalar, gullar, hayvonlar va insonlar» (1937) degan kitobi juda qiziqarlidir. Unda qisqa-qisqa, bor-yo‘g‘i bir necha satrdan iborat ertakchalar to‘plangan. Ular gullar, hasharotlar, hayvonlar va insonlarga xos xususiyatlar to‘g‘risida hikoya qiladi. Shoir o‘z bolaligini qurshab olgan dunyoni qayta yaratganga o‘xshaydi. Shoirning bulardan boshqa kitoblari ham bolalarning doimiy hamrohidir.

She’rlar

SEHRLI MAKONGA BORAMIZ

Birinchi, ikkinchi, uchinchi...
Bolalar, ortimdan uching-chi!

Qani, ketdik o‘tloqqa,
Unda o‘ynab kulmoqqa.

Ko‘ramiz quvlashib dalani,
Yangratib, boshlaymiz yallani.

So‘ng boramiz o‘rmonga,
Sirlar to‘la makonga.

Sehrli qo‘sh yaydoq orasi –
Unda bor qadimiy bir qasr,

Yuringlar chaqqon-chaqqon,
Unda bor oltin ilon.

Oltin ilon, bilsangiz,
Pichir-pichir qiladi.
Eshiklarning qulfini
Sekin ochib beradi –

Birinchi, ikkinchi, uchinchi...
Bolalar, ortimdan uching-chi!

SHOSHMA, KUZ

Kuzgina, ey, kuzgina,
Yomg‘ir bilan ezmay tur.
Shoshma bizga ozgina,
Biror hafta sekin yur.

Sevib quyuq o‘rmonni
Kezgandik ixlos bilan.
Xushlashib ulgurmadik
Ammo to‘kin yoz bilan.

Yana bizlarni picha
Ilitsin oltin quyosh.
Kelasi yil yozgacha
Qari bo‘lamiz bir yosh.

Qarimaymiz-u undog‘,
Ulg‘ayamiz bir yilga.
Gala qushday, yoshlik chog‘,
Ketar boshqa manzilga.

Kuzgina, ey, kuzgina,
Yomg‘ir bilan ezmay tur.
Shoshma bizga ozgina,
Biror hafta sekin yur.

KALIT TUSHDI KOPTOKKA

Kalit tushdi koptokka,
Bulut tushdi oftobga.
Qutichada gugurt cho‘p
Opa-singilday bir to‘p.
Gugurt cho‘pdan alanga
Tarqaladi olamga.

QARI QIROL ASALXO‘R

Bir payt qirol bo‘lgan ekan,
Qari qirol judayam.
Qanddan ko‘ngli qolgan ekan,
Shokolad bo‘lgandayam.

Qirol o‘zin ovutarkan
Faqat xushbo‘y bol bilan,
Yilda qancha asal yerkan –
Hech kim o‘lchab bilmagan.

Tog‘ asali, dasht asali,
Gul asali xilma-xil
Yoz mahali, kuz mahali –
Tinmay yerdi butun yil.

Taxt atrofin bosdi birdan
Guv-guv qator arilar –

Yetib keldi qaysi go‘rdan,
Eh, bu makkor arilar!

Bol yeyishni bitta ari
Qo‘ydi rosa o‘rniga,
So‘ngra to‘g‘ri uchib borib
Qo‘ndi qirol burniga.

Qirol jahl qilmadi ham,
Jahl nima – bilmasdi:
Qo‘nsa qo‘nar, shunga ne g‘am,
Hech arida yo‘q qasdi.

Qirolmisan – tanglikni yech,
Masalani o‘ylab ko‘r:
Nishi bo‘lgan ariga hech
Ishonasanmi, shapko‘r?

Maydonlarda esar erdi
Yer yalovchi izg‘irin.
Qirol uch bor aksa urdi,
Boshin silkib betinim!

Ari zahar nishin shunda
Suqib oldi alamdan.
Va o‘ldirdi zumda uni –
Qirol o‘tdi olamdan!

MEN HAMMADAN XAFAMAN

Men hammadan xafaman,
Afrikaga ketaman.
Oborib qo‘yar meni
Yog‘och toychog‘im.

Hech kimni sog‘inmayman,
E, sog‘inib netaman?
Afrikada tushlikda
Po‘rtahol bo‘lar doim.

Agar bir kun ot va men
Sag‘al-pag‘al ichiksak,
Yig‘lamaymiz ezilib,
Otim kishnaydi sekin.

Ustimizda porillar
Kapalak, naq kamalak,
Ertaklar aytib berar
Tushlar singari sokin.

XO‘ROZ

Tong otganda, osmon yorishib biroz,
Tuman aro kuyladi bir oltin xo‘roz:

«Tong tushdi tepadan aylanib donga,
Sal qoldi tushishiga jig‘ildonga.

Bo‘tako‘zga tegmay, dumalab ketdi,
O‘tloqqa o‘roqchi er-xotin o‘tdi».

Tong otganda, osmon yorishib biroz,
Tuman aro kuyladi bir oltin xo‘roz,

Bor kuch bilan elni xabardor qildi:
«Uyg‘oning, ertangiz erta ham bo‘ldi!»

BAHOR QUYOSHI

Bahor quyoshi naq hushtakning o‘zi,
Iliq churillaydi butun kunduzi.
Goh, viveska rasmi ishshayganiday,
Bulut mo‘ylov quyosh turar indamay.

XO‘RSINIQ

Yomon kitoblar uchun
O‘rmon ham uvol.
Qurigan shoxlar uchun
Quyosh ham uvol.
Yovuz dengizlar uchun qayiqlar uvol.
Yomon odamlar uchun ko‘z yoshlar uvol.

TO‘RTLIK

Dengiz bo‘yidan topdim zarang yaprog‘in,
Bu kapalak shamoldan qo‘rqmadi ko‘p ham.
Og‘ir kunda og‘ir bo‘l, aziz o‘rtog‘im,
Ha-ha, shunday, onma-on, qadamba-qadam.

SLOVAKIYA BOLALAR ADABIYOTI

MILAN RUFUS



Milan Rufusning birinchi to‘plami 1956-yili bosilib chiqqan. O‘shanda to‘plamdagi «Qachon pishamiz?» she’ri bir qator tanqidchilarning ta’nalariga uchragandi. Birovlar uni pessimizm (badbinlik)da ayblar, birovlar, bunday she’rni bolalar u yoqda tursin, kattalar ham tushunmaydi, u qandaydir fojeiy ohangda, der edi. Ammo shoirni atoqli slovak adabiyotchilari, jumladan, Milandan olti yosh katta, mashhur yozuvchi Vladimir Minach qo‘llab chiqdilar. Milan Rufusni kim qanday qabul qilganidan qat’i nazar – uning to‘plami hech kimni befarq qoldirmadi. Shoirning iste’dodida haqqoniylik, ilg‘orlik va mahorat bor edi.

Milan Rufus filologiya sohasida o‘qigan, kasbi adabiyotshunos edi. Bir qancha ilmiy ishlari Slovakiyada tanilgan. Ammo, eng muhimi, bolaligi Ikkinchi Jahon urushi davriga to‘g‘ri kelgan, urush davrining hamma mashaqqatlarini boshdan kechirgandi. Oilasi kambag‘al qishloqda hayot kechirar, Milan bola chog‘idayoq ulg‘ayib qolgan edi. Keyin universitetda o‘qidi, Chexoslavakiyaning yangi sanoat qurilishlarida ko‘ngilli brigadalarda ishladi. Ana shu biografik bilim boyliklari va tajribalar bilan she’riyatga kirib keldi. Hayotga mustaqil munosabat, muammolarga faol aralashishlar uning she’rlarida aks etmay qolmadi.



She'riyatda u 1900 –1924-yillarda yashab o'tgan, 24 yoshida sil kasalidan vafot etgan mashhur chex shoiri Irji Volkerni o'z ma'naviy ustozi deb bilardi. Volker kabi, Rufus ham shoir, avvalo yaxshi inson bo'lishi kerakligi, undan tashqari shoirning ko'zi o'tkir, tili jonli, chanqoq yo'lovchini qondiruvchi buloq kabi yangroq bo'lishi zarurligi to'g'risida o'ylar edi.

Shoirni badbinlikda ayblaganlar nohaq edilar.To'g'ri, u insoniy ofatlar, iztiroblar to'g'risida yozar va ularda ma'yus ohanglar bor edi. Keyinchalik u bolalarga bir qator she'riy ertaklar yaratdiki,ular xalq og'zaki ijodi bilan bog'liqligidan tashqari, tag zaminida muhim umuminsoniy muammolarni o'rtaga qo'yar edi.

Rufusning she'riy kitoblari juda ko'p emas. «Qachon pishamiz?» to'plamidan keyin «Egasiz yerda», «Qo'ng'iroqlar», «Kambag'allarning dasturxoni», «Oltin musiqa», «Pufak Polvon va uning do'stlari» singari sanoqli kitoblari bosilib chiqqan xolos. Ammo shu to'plamlarning o'ziyoq Milan Rufusni kattalar va bolalar she'riyatining katta siymosi qilib tanitdi.

She'rlar

BIR O'G'IL BOLA

Bu ertak g'o'r uzum suviday taxir.
Ko'l muzladi va unda nilufar guli.
Yurtda tilsiz inson yashardi. Oxir
Mehrni kuyladi, oldi choy puli.

QACHON PISHAMIZ?

Dalalarda sayramas qushlar,
Yilt-yilt etar olisda chaqmoq.
Pishayotir qiynalib, terlab,
Shudgorlarda milyonlab boshoq.

Pishiqmi bu boshoqlar, deya
Tishlab ko‘rar qattiqqo‘l dehqon.
O‘rim uchun shaymi dalalar?
Qachon pishar?.. Pishamiz qachon?..

She’rim, sening erking o‘zingda,
Oson bo‘yin berma hech qachon!..

TARIX

Parcha

Tuyqus kelar telba xotira,
So‘ylar sizga qaysi bir zamon...
Shunday paytda yig‘lamang sira,
Ko‘z yoshingiz arting, onajon.

Akam kirib yigirma uchga
Derazaga o‘rnatardi rom.
Mo‘rimizdan buralab ko‘kka
Tutun o‘rlar edi beorom.

Oppoq unga belangan onam
Gazanda o‘t o‘rar g‘ozlarga,
Madh aytardi tovuqlar beg‘am
Kelayotgan bahor-yozlarga.

Ko‘klam edi, serzahmat ko‘klam,
Yurgizardi hukmin yumushlar.
Sokingina dunyoga ul dam
Keldi ofat – sariq urushlar.

El titarkan tog‘ teraklarni,
Bulutlarni niqtadi tag‘in.

Yigirma uch yoshdagi akam
Yelkasiga oldi qopchig‘in.

Onam holsiz, qanotsiz qushday,
Eshikka urildi, tushdi tagiga.
Akamni yashirgach olis daraxtlar,
Yig‘ladi u etaklariga.

Soat gardishidan yoqalar kunlar,
Pochtachi el aro yurar tilsiz, jim.
U olib kelarkin bu gal ne xabar?
U pochtachi emas, aslida o‘lim.

To‘xtang, oyi, o‘qimang! O‘qir.
Hurmatli...– o‘qiydi. Ko‘rmas matnni...
Yiglamang, «hurmatli», yig‘lamang, axir... –
Halok bo‘ldi jangda... asrab vatanni... –

Sen esa, azamat, ko‘z yoshingni art.
Abjir vaqt changitdi yillar g‘uborin.
Akam kirgan edi yigirma uchga,
Biz ortiq ko‘rmadik afti-angorin.

Taqvimdan o‘n ikki kuzning betlari
Tushdi qabristonning qabrtoshiga.
Qalbimizda o‘n ikki kuz yodi yashar,
Hayqiriq otilar odam zotiga:

Daf bo‘lsin, urushlar! Yo‘q bo‘lsin urush!
Daf bo‘lsin, urushlar! Yo‘q bo‘lsin urush!



OLTIN MUSIQA

Uchar oltin musiqa
Erk qushi bo‘lib.
Yerda tinglar odamlar
Quvonchga to‘lib.

Musiqaning ichida
Chang, g‘ijjak, burg‘u,
Ustida oltin gumbaz,
Eh, g‘aroyib bu!
Axir uni ko‘p yillar
Yalmog‘iz kampir
Yetti tamba ortida
Tutgandi asir.

Qafas ichra o‘lsin deb,
Kuylamasin deb,
Elga quvonch berishni
O‘ylamasin deb...

Uxlab qoldi bir kuni
Lekin shum kampir,
Musiqa uchib ketdi,
Bo‘lmang xavotir.

Uchdi baland tog‘larga,
Sirg‘alib beg‘am.
Unga miltiq o‘qtaldi,
Bir botir shu dam.

Otdi-yu, faqat chetlab
O‘tib ketdi o‘q.
Musiqani o‘q bilan
Otib bo‘lmas, yo‘q!

Yo‘q qilmoqchi emasdi
Botir ham kuyni,
Sal gang qilib qo‘ymoqchi
Bo‘lgandi uni.

Ko‘kdan oppoq g‘oz kabi
Yaqin gulzorga,
Qulab tushsin, degandi
O‘xshab chiltorga.

Miltiq qaldiroq kabi
Qarsillar takror.
Mana, musiqa qo‘lda
Qush kabi titrar.

Kuyla, oltin musiqa,
To‘xtama ortiq,
Seni bir go‘zal qizga
Etaman tortiq.

Hursan, endi kuylaring
Ketmas abasga.
Seni yalmog‘iz kampir
Solmas qafasga.

Otganda qanotingga
O‘qtalmadim tik.
Ofat emas, men senga
Tilayman shodlik!

KO‘PIK POLVON VA UNING DO‘STLARI

Sho‘rlikkina Ko‘pikcha Polvon
Yolgiz yashar qiynalib yomon.
Yaqinlashib qolganida yoz,
Kezmoq bo‘ldi dunyoda biroz.
Butazorlar, do‘nglardan xomush
O‘tdi, shu payt keldi bir tovush.

«Meni birga ola ket, ey do‘st,
Senda bo‘lsa, yarayman, kam-ko‘st.»
Pufakcha lol jim turdi birpas,
So‘ng dediki: «Kimdan keldi sas?»
«Kokilchali Sichqonman, bu – men!
Zo‘r hamrohman, bilmaysanmi sen?»

«Ketdik». Ketdi ikki do‘st lo‘k-lo‘k.
Osmon esa cheki yo‘q, ko‘m-ko‘k.
Ba’zan yo‘lda to‘xtarlar picha,
Kokilchali Sichqon, Ko‘pikcha.
Bir payt o‘tisharkan botqoqdan
«Vaq-vaq» keldi allaqayoqdan.

«Iya, kimsan?» «Yashil Baqaman!
O‘rtoq bo‘lay, sizga yoqaman...
Uyqu kela qolmas botqoqda,
Vaq-vaqlayman zerikkan choqda».
«Ketdik». Uch do‘st ketishdi lo‘k-lo‘k.
Osmon esa cheki yo‘q, ko‘m-ko‘k.

Yo‘lni chetlab yurishdi ancha
Ko‘pikcha-yu Sichqon, Baqacha.
«To‘xtang» dedi kimdir nogahon.

«Kimsan?» «Menmi, ilonman, ilon!
Qo‘rqmang, menda uzun-ku, deb, dum,
Ortingizdan surgalib borgum».

«Ketdik». Yo‘lga tushishdi darrov,
G‘am yemasdan bir bo‘lib to‘rtov:
Ko‘pikcha-yu Baqacha, Sichqon,
Ortlarida ko‘rinib ahyon,
Ilon borar edi izma-iz,
Dalalarda kecha-yu kunduz.

Yot ellarda har yon chopdilar.
Yot elda ham bir do‘st topdilar.
«Hormanglar!» «Voy, bu qanday hayvon?»
«Uzunquloq Quyonman, Quyon!
Taqdirimdan xafaman, yolg‘iz.
Meni safingizga olingiz!»

«Ketdik!» Ular bo‘ldi beshovlon,
G‘am yemasdan ketdilar shodon:
Ko‘pikcha-yu Baqacha, Sichqon,
Ilon, Uzun quloqli Quyon.
«Salom!» «Bu qush qarg‘ami, ukki?»
«Men qushmasman, hayvonman – Tulki!

Men sizlarga do‘st bo‘lgim kelar,
Kuylaymanki, shunday zo‘r kuylar...»
«Ketdik!» Ular bo‘ldi oltovlon,
G‘am yemasdan ketdilar shodon.
Ko‘pikcha-yu Baqacha, Sichqon,
Ilon, Uzun quloqli Quyon,

Ortda Tulki, ko‘zlari jalang,
Kuy kuylashda ustasi farang.



Karnay kabi uvillab birdan
Ovoz keldi allaqayerdan.
«Hoy, sen kimsan? Qani, kel beri!»
«Men Bo‘riman, karnaychi Bo‘ri!

Ko‘p zerikdim yolg‘iz bu yonda,
Safga oling – tegmam Quyonga!»
«Ketdik!» Ular bo‘ldi yettovlon,
G‘am yemasdan ketdilar shodon.
Ko‘pikcha-yu Baqacha, Sichqon,
Ilon, Uzun quloqli Quyon,

Ortda Tulki, Karnaychi Bo‘ri –
Chaqchaqlashib borishar bari.
Bosishganda o‘rmonga qadam,
Guldur keldi, misli bochkadan.
«Hoy, sen kimsan?» «Ayiqman yetim.
Xo‘jag‘atning joniga tegdim.

Ne qilarim bilmay guvlayman,
Sizga yo‘ldosh bo‘lsaydim, deyman».
«Ketdik!» Ketdi sakkizta yo‘ldosh,
Mana, yo‘lda borar sakkiz bosh.
Ko‘pikcha-yu Baqacha, Sichqon,
Uzunquloq Quyon va Ilon.

Ortda Tulki, Karnaychi bo‘ri,
Yetim Ayiq – borishar bari.
Tog‘lar osha va bog‘lar osha
Bir qishloqqa kirdilar shosha.
Oqshom chog‘i ko‘rdilar bir uy –
Bir Alvasti qilar edi to‘y.

«Musiqasiz to‘y bo‘larmi to‘y?
Keling, do‘stlar, biz boshlaylik kuy!»

Ular shunday kengashdan keyin
Boshladilar rang-barang o‘yin.
Ko‘pik o‘ynar sakrab jindaqa,
Vaq-vaqlarin boshladi Baqa.

Ilon dum o‘ynatish bilan band,
Kontrabas kuyiga monand.
Quyon qo‘lga ikki cho‘p olib
Ko‘za chalar sho‘x kuyga solib.
Tulki esa chayqalar tinmay:
La-lay, la-lay, yana bir la-lay.

Bo‘ri jazavada anchayin
Dudulatar edi karnayin.
Ayiq g‘o‘la savalay ketdi,
To‘ychilarning qulog‘i bitdi.
Notinchlanib, to‘y sovib ketdi,
Doshda kuyib ketdi qo‘y eti.

Dod-voy soldi Alvasti sho‘rlik,
– Bu ne ishkal? Bu qanday xo‘rlik?
Ko‘pik zavqi oshgandan oshar,
«Raqs qizisin!» deya soldi jar.
Vahshat sochib shunday o‘kirdi,
Kuchandi va shishdi, semirdi.

Ro‘y berganday birdan gulduros,
Uy yonida: – Paq! – etdi bir sas.
Ko‘pikcha yer tepingan chog‘i,
Paq yorilib ketdi qursog‘i.
Shunday qiziq bitdi hangoma,
Naq o‘lguday kulardi hamma.

To‘ydagilar qo‘rqib bekorga,
Berkinishdi eski mozorga.

Supurgisin topib Alvasti
Uni minib qamchini bosdi.
Hamma qaytdi eshik, darchadan,
Shiydam bo‘ldi tovog‘-u lagan.

Mil-mil ekan bu yerda taom,
Barini yeb etdilar tamom.
Faqatgina Ko‘pikcha sho‘rlik
Yotar edi... Mana, ko‘rgulik.
U tuproqda yotardi behol,
Do‘stlar yayrab-yashnar bemalol.

Ziyofat ham ketmadi zoye,
O‘tdi Bo‘ri-Tulkining to‘yi.
Kuyov bilan kelin tonggacha
Qo‘y etiga to‘ydilar ancha.
Faqat sho‘rlik Ko‘pikchagina,
Na go‘sht yedi, na osh yedi, na...

Do‘stlar obdan bo‘kib to‘ydilar,
So‘ng Ko‘pikni tikib qo‘ydilar.

RUMINIYA BOLALAR ADABIYOTI

TUDOR ARGEZI



Ruminlarning «Qarimas yoshlik, o‘limsiz hayot» degan bir ertagi bor. Unda barcha odamlarni baxtli qilish yo‘lida ming xil balolarni yengib o‘tgan va shu tufayli hech qarimaydigan yoshlikka va o‘lmaydigan hayotga erishgan qahramon odam siymosi yaratilgan edi. Ulug‘ rumin shoiri Tudor Argezini shu ertak qahramoniga o‘xshatadilar. Chunki u ham butun hayoti va ijodi bilan abadiy yosh va o‘lmas siymo bo‘lib qoldi.

Tudor Argezi 1880-yilda Tirgu-Jiu degan qishloqda dehqon oilasida tug‘ildi. Otasining yonida unga yordamlashib yurib, dehqonlar mehnati nimaligini bildi, dehqonlarning orzu-armonlarini aks ettiruvchi ertak, afsona va dostonlarini eshitib, o‘shalar ta’sirida ulg‘aydi. Yozma adabiyot namunalarini ko‘rib, yuragida she’rlar tug‘ila boshladi va ish qidirib poytaxt Buxarestga ketdi. Bu yerda birinchi she’rlarini 16 yoshida «Pravoslav ligasi» degan jurnalda e’lon qildi. Adabiy ishlar bilan muntazam shug‘ullanishi 1904-yilda «To‘g‘ri yo‘l» jurnalida davom etdi. She’rlari ko‘pchilikka ma’qul tushib, adabiy doiralar bilan yaqinlashdi. 1927-yilda «Kerakli so‘zlar» degan she’riy kitobini e’lon qildi, mashhur bo‘lib ketdi. O‘zi ham «To‘tiqushning chiptalari» degan jurnalni nashr etib

tarqata boshladi. Ruminiyaning kelgusidagi eng yirik yozuvchilari dastlab shu jurnal orqali tanilgandilar.

Uning «Mog‘or bosgan gullar» (1931), «Oqshomlik kitobcha» (1935), «Boshqa kerakli so‘zlar» (1936), «Og‘iz ochmay aytilgan yetti qo‘shiq» (1939) singari kitoblari rumin adabiyotining eng go‘zal namunalari bo‘lib qoldi.

Tudor Argezi rumin she’riyatining badiiy so‘z boyligini yuksak pog‘onaga ko‘tardi, hatto bir-biriga qarama-qarshiday ko‘ringan, amalda siyqalashib qolgan so‘zlarga ham yangicha qanot berdi, mo‘jizaviy kuch bilan ta’minladi. Yana eng muhimi u umrining oxirigacha chindan ham hech qarimaydigan, zamonlar osha qaynoq saqlanuvchi she’rlar yaratdi. Bunga misol qilib uning «Yaproqlar» (1961), «Yangi dostonlar» (1963), «O‘lchovlar» (1964), «So‘zlar» (1965), «Ritmlar» (1966), «Tun» (1967) kabi to‘plamlarini ko‘rsatish mumkin. Argezi bir necha nasriy asarlar – romanlar, qissalar va o‘tkir hajviy hikoya va pamfletlar ham yozgandi.

Tudor Argezi asosan kattalar yozuvchisi bo‘lsa ham, hech qachon bolalarni unutmadi, ularga atab turli mehnat she’rlari, tinchlik, odamgarchilik, vatan muhabbatiga oid she’rlaridan tashqari, «O‘yinchoqlar kitobi» degan ajoyib bir asar ham yozdiki, bu – bolalar adabiyotining noyob o‘rnagi bo‘lib qoldi.

Tudor Argezi 1967-yilda vafot etdi.

She’rlar

OMOCH

Kim seni ixtiro etgan, omochim?
Hosilsiz tuproqni turg‘azib azot,
O‘lik loyga kirib, baxsh etib hayot,
Kim yerni gullatgan, husnini ochib?

Kimning qo‘li yerni titgan eng oldin?
Kim tongda birinchi chiqqan shudgorga?



Keng cho‘lni taqsimlab qator-qatorga?
Kim nonni muhim rizq etgan eng oldin?

Kim yomg‘irda quyuq loylarni toptab
Uni sovuq tunda ilk bora bo‘lgan?
So‘kinib, sig‘inib, zo‘r umid bilan

Zax bosgan qatlamni surgan tekislab?
Hosilini kutar bechora inson,
Yer haydar, tekislar, urug‘lar sochar,
Zahmat zahrini ham sevinch-la ichar,
Shundan bir umrlik topgandir u shon.

O‘ROQ

Ko‘klardan yerga hilol
Tushdi bug‘doyzor polga.
Uni ko‘rganda, darhol
O‘roqchi oldi qo‘lga.

Bug‘doy, sulini o‘rar,
O‘rog‘i yaraq-yaraq.
Aka-ukaday bo‘lar
Asli hilol va o‘roq.

Zig‘irni ham kesar u
O‘tkir o‘rog‘i bilan,
So‘ngra g‘aram yasar u
Sanoq-sanog‘i bilan.

Oy kezib aylanasi
Kelib ko‘rsaki oqshom,
Kunduz temir ukasi
Ishlabdi qoyilmaqom.

MITSURAGA MENING ALLAM

Ey xudo, mening shu qizalog‘imga
Bepoyon yeringdan mo‘jaz uycha ber.
Chiroyli, mushukning bir qulog‘iday...
Yalpiz, guldan bo‘lsin bu uycha, bu yer.

Oynasi yonida kichik ko‘l bo‘lsin,
Gugurt qayig‘ini suzdirish uchun.
Moviy suvlari ham limmo-lim to‘lsin,
Quyosh, yulduzlarni kezdirish uchun.

Mitsuramning uyi, katalaklari
Yovshanli o‘rmonlar bag‘rida bo‘lsin,
Yozgi kengliklarning kapalaklari
Hamda qurbaqalar yonida bo‘lsin.

Unga mo‘yqalam-u bo‘yoqlar ham ber
Ber yana tip-tiniq, oppoq qog‘ozlar.
Oldi-orqasiga boqmay bo‘yasin
Qing‘ir-qiyshiq itlar, o‘rdak va g‘ozlar.

SERBIYA BOLALAR ADABIYOTI

YOVAN YOVANOVICH – ZMAY



Yovan Yovanovich – Zmay 1833-yilda Serbiyaning Novisad shahrida tug‘ilib, 1904-yilda Kamenitsa shahrida vafot etgan ulug‘ Serb shoiridir. Huquqiy va tibbiy ma’lumotlar olgan, ammo 1850-yillardan boshlab adabiy faoliyatga berilgan. Serb tanqidchilarining fikricha, uning tarix, milliy mustaqillik, ozodlik mavzularidagi asarlari millatning o‘zligini tanishiga katta hissa qo‘shgan. «Sanchqi», «Uch gayduk», «Baxtsiz ona» kabi she’rlari shular jumlasidandir. «Kaltakka qasida», «Serbiyada yangi saylovlar», «Qonunga sodiq fuqaroning qo‘shig‘i» kabi hajviy she’rlarida podshohlik, yakkahokimlik tuzumini fosh ettirgan bo‘lsa, «Zmay» («Ilon»), «Jija» («Shula»), «Sratmali» («Pakana») nomli jurnallarda bosilgan iblisga qasida, «Ombor kalitiga qasida» singari she’rlarida yuqori mansablarda o‘tirib olib xalq mulkini o‘marayotgan badnafslarni, bizning Nasriddin Afandiga o‘xshab hozir javoblik bilan qattiq kulgi ostiga olgan. Aslida shoirning o‘z ism familiyasi Yovan Yovanovich bo‘lib Zmay (Ilon) taxallusini keyinchalik olgan. Zmay serb she’riyatida birinchi bo‘lib dehqonlar va kambag‘allarning insonlik huquqlaridan mahrumligini og‘ir dard bilan tasvirlagan. «Uchinchi risq (tavakkal)», «Sudxo‘r», «Tikuvchi», «So‘lgan gullar» kabi she’rlari oliy insonparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan. Zmay asarlari o‘z ona tilida 16 jildni tashkil etadi.

Serblar har yili 3-iyun shoir vafot etgan kuni uni xotirlash uchun Kaminitsa shahriga uning qabri tepasiga yig‘iladilar va eng iste’dodli shoirlarga Zmay nomli mukofot topshiradilar. Zmay she’rlari rus tiliga o‘tgan asrlardayoq tarjima qilina boshlagan va ko‘p marta nashr etilgan. O‘zbekchaga ilk bora tarjima qilinmoqda.

She’rlar

KICHKINA ERTAK

Kichkina qayiqda
Kichkina bolacha
Kichkina dengizga suzib boradi.
Kichkina shamollar
Kichkina to‘lqinda
Kichkina qayiqni surib boradi.
Kichkina qo‘nimjoy
Kichkina shaharga
Kichkina bolacha borib ham yetdi.
Machtadan tushirdi
Kichkina yelkanni,
Shu bilan kichkina ertak ham bitdi.

URUSHGA!

Yova besh yoshga to‘ldi,
Urushga borar bo‘ldi:
Qaznoqqa kirib bordi,
Yog‘och miltiqni oldi,
Senga, Ayiqcha, – dedi,
Qo‘shnilar qarar endi...
Ha, – dedi qarab unga, –
Urush hazilmas senga.

Unda uchar mina, o‘q,
O‘yinchoqqa o‘rin yo‘q.

Yova besh yoshga to‘ldi,
Janggoh sari shoshildi.
Qilich osdi yoniga,
So‘ng dedi Quyoniga:
– Sen-ku menga o‘rtoqsan,
Lekin biroz qo‘rqoqsan.
Botir jangda to‘kar qon,
Senga o‘rin yo‘q, Quyon.
Mard otimni olaman,
Uni jangga solaman.

TESKARI

Oynamiz xira tortdi – quyosh ohista botdi.
Do‘konimiz quladi – Yer qattiq qimirladi.
Buvim aksa urdilar – yellar kuchga kirdilar.
– Po‘stinni yechib yubor! – Erib ketdi hamma qor.

Nima bo‘lyapti o‘zi?
Qani aytar kim?
Teskari aytib ko‘rsak
Nima bo‘larkin?

Quyosh ohista botdi – oynamiz xira tortdi.
Yer qattiq qimirladi – do‘konimiz quladi.
Yellar kuchga kirdilar – buvim aksa urdilar.
Erib ketdi hamma qor – po‘stinni yechib yubor!

G‘AROYIB QISHLOQ

Bir g‘aroyib qishloqqa
Sizni taklif qilaman.
Kimki borsa u yoqqa
Maza qilar – bilaman.

Unda har hovli-uyning
Tomlari yashil biram!
Har qaysi ko‘cha-ko‘yning
Yuzida guldor gilam.

Unda yo‘q devor, eshik,
Oynalar boqqa ochiq.
Mehmonni aytib qo‘shiq
Mehmon qilishar iliq.

Mo‘jiza, der u yoqni
Bir marta ko‘rgan inson!
U g‘aroyib qishloqni
Deydilar yashil o‘rmon.

TUNGI QOROVUL

Pastak tomlar ortiga
Botdi-yu quyosh,
Qishloq uyquga yotdi,
Tun cho‘qdi yuvvosh.

Ko‘kda oy suzib borar
Nur tarab yerga,
Men tungi qorovulman
Oy bilan birga.

Tartarak bor qo‘limda,
Tar-tar qildirib
Yarim tun bo‘lganini
Elga bildirib,

Fonarim piligini
Yoqib qo‘yaman,
Ming‘irlab sekin qo‘shiq
Aytib Yuraman.

Qishloqda el uyqusin
Qo‘riyman tiyrak.
Shitir etgan sasga ham
Qarayman ziyrak.

Tun bo‘yi qishloq bo‘ylab
Yuraman bedor.
Qorovulman, qadrimni
Bilaman poydor.

Menga oylik berishar,
Gap bunda emas.
El meni izzat qilar,
Muhimi shu, bas.

Qishloq aylanib tunda
Hech olmayman tin.
Ko‘chalarda ketimdan
Qolmaydi itim.

OLMA PISH, OG‘ZIMGA TUSH

Boshim uzra osilib
Turibdi olma.



Olma, buncha tovlanib
Ko‘nglimni bo‘lma!

Ingichka shoxni pastga
Salgina eggan,
Qip-qirmizi to‘shlari
Barglarga teggan.

Tiniq soya jimgina
Olmani silar....
Yetilgan, shirinligi
Ko‘rinib turar.
Quyosh nuriga oson –
Unga tegmoqqa.
Mening bo‘yim yetmaydi
Baland butoqqa.

Bandi shu qadar pishiq,
Po‘sti yaltiroq.
Olmaga qarab yotish
Azob-a qandoq!

BOLA BILAN KAPALAK

Bola:

Kapalakjon, kapalak,
Gulga qo‘nib tur andak.

Kapalak:

Gulga qo‘nmayman,
Bor-bor!
Qo‘lda tutqich to‘ring bor.

Bola:

Ey kapalak, ey qo‘rqoq,
Tutmayman seni,
O‘rtoq!
Yaqin borib
Qarayman.
Oyog‘ingni
Sanayman.

Kapalak:

Kerak emas menga esh...
Bo‘lmayoq qo‘y menga xesh...
O‘zim sanay olaman:
Bir, ikki, uch, to‘rt, besh.
Sensiz sanayman, o‘rtoq,
Nechtaykan menda oyoq.

ESHAKNING QULOQLARI

Eshak: – Omadsizman! – deb
Hangradi uzoq-uzoq.
Odamlar meni hadeb
Deyishar uzunquloq.
Axir filda-ku quloq
Menikidan uzunroq.
– Ha, – dedi fil o‘ylanib, –
Katta quloqmiz chindan,
Bizning quloq chiranib
Lekin hech dikkaymagan!

BRANKO CHOPICH



Serbiyalik yozuvchi va shoir Branko Chopich Birinchi Jahon urushining boshlarida 1915-yil 1-yanvarida o‘sha paytdagi Avstriya-Vengriya davlati hududida, Xashani qishlog‘ida tug‘ildi. Otasi Vid Chopich Avstriya-Vengriya armiyasi tarkibida, tog‘asi Nijo Avstriya-Vengriyaga qarshi serb isyonkorlari tarkibida jang qilardilar. Ular faqat urush tugagandan keyingina bir dasturxon atrofida uchrashgan ekanlar. Otasi vafot etganda Branko to‘rt yoshda edi. Ukasi Rayko va singlisi Smilka bilan Brankoni olib onasi Sofiya eski ota uyiga, tog‘asi Nijo va buvasi Rado qaramog‘iga ketdi. Branko olti yoshga kirganda buvasi bilan birga qo‘y boqib yurar, buvasi ko‘pincha qo‘zini boqishni unga topshirib ketaverardi.

Branko hali maktabga borishidan oldin o‘qishni o‘rganib olgan edi. Buning tarixi shunday: bir kuni Branko sandiqdan chiroyli qilib chiqarilgan bir xalq qo‘shiqlari kitobini topib oladi, Nijo tog‘asiga o‘qitadi, so‘ng mengayam o‘qishni o‘rgating, deb turib oladi.

Maktabga borib, uchinchi sinfda o‘qiyotganda, tog‘asidan ikki dinor (pul) undirib, o‘qituvchisidan «Migel Servantes» degan kitobni sotib oladi. Unda Servantesning hayoti va «Don Kixot» romanining qiziq-qiziq parchalari berilgan edi. Maktabda boshlang‘ich sinflardan o‘tgach, Bixach Yaqinidagi gimnaziyada o‘qiydi. Gimnaziyadan so‘ng Banya-Lukadagi O‘qituvchilar

maktabiga kiradi, oxiri Belgrad universitetining falsafa fakultetida o‘qiydi. Talabalik yillarida matbuotda hikoya va she’rlari chiqa boshlaydi. Lekin uning dastlabki mashqlari 1928-yilda yoshi 14 ga yetmasdan burun bolalar jurnallarida bosilgan edi.

1940-yilda Branko Chopich universitetni tamomlaydi. Ikkinchi Jahon urushi yillarida milliy ozodlik harakati partizanlariga qo‘shilib, urush oxirigacha harbiy muxbir bo‘lib ishlaydi. Urushdan keyin Belgradda yashaydi, «Pioner» jurnalining bosh muharriri bo‘ladi. Chopich 1984-yil 26-martda vafot etdi.

Branko Chopich ijodiy g‘ayratga to‘la, keng miqyosli yozuvchi edi. U kichik yoshdagi bolalarga «Kapalaklar va ayiqlar-mamlakatida», «Ajdar qanotlari ostidan chiqqan hikoyalar», «Armiya – sening himoyang» kabi she’r va hikoyalar yozgan, o‘rta va katta yoshdagi maktab o‘quvchilariga «Yalangoyoq bolalik», «Kamchatka yillari», «Qayg‘urma, birinj haykal» kabi qissalar, romanlar yaratgandi. Chopich hikoyalari serb hikoyachilik maktabining oltin fondiga qo‘shilgan. U bolalar tilidan yozilgan asarlarning eng go‘zal namunalarini, masalan, «Pioner trilogiyasi»ga kirgan «Burgut bolalari erta parvozga ketadi» (1957), «Shonli jonbozlar» (1961), «Oltin vodiydagi jang» (1963) romanlarini yaratdi. Chopichning bolalarga yozgan kitoblarida an’anaviy shoirona ertak bilan hayotiy syujetli qissa bir-biriga singib qorishib ketgandir. Uning qahramonlari murakkab holatlarda ham yaxshilik va adolatning tantanasiga, odamlarga ishonadilar.

Hikoya

GULXAYRI TUSIDAGI BOG‘

Erkaklar ko‘pincha ranglarni farq qilolmaydilar, ammo mening buvamday «ikkinchi bilimdon»ni, o‘lay agar, ikkinchi bunaqasini topolmaysan. Uning bilim doirasi bor-yo‘g‘i to‘rtta asosiy tusdan iborat edi, boshqalari yo umuman yo‘q, yoyinki nari borsa – o‘shandayam buvamning kayfiyati yaxshi bo‘lsa – qandaydir noaniq

tavsifdan iborat bo‘lar, «sariqrog‘-u ammo sariq emas, sariqqa o‘xshab ketadi, sariq desa ham bo‘ladi, demasa ham» qabilida edi.

Tuslarga boy dunyomizdagi jon va jonsiz ko‘p narsalar uning nazarida ana shunday «desa ham bo‘ladi, demasa ham» tusida bo‘lgani uchun, buvam bechora doim be’mani va beo‘xshov ahvolga tushib qoladi.

Bir paytlar, jonni yayratuvchi bir bahor pallasi uyimiz etagidagi bog‘chada tom ma’nosi bilan bir kecha ichida gulxayrilar gulladi va yog‘och devorning qorayib ketgan poya – bag‘azlari oralab mehr-u tarovat ila yiltillab qoldi. Ertalabki sokin Quyosh nurlari ostida ular shu qadar emin-erkin yiltirardiki, bu hatto buvamning nazaridan ham chetda qolmadi, ulardan ta’sirlanib hovlida o‘ralashib yurarkan:

– Buni qara-ya, butun bog‘ xuddi ko‘k bo‘yoqday, ko‘m-ko‘k bo‘lib ketibdi! – deb javradi.

Rostini aytganda, gulxayrilar orasida faqat ba’zi bir joylar ko‘klashganday edi, ammo modomiki buvam, butun bog‘ ko‘m-ko‘k bo‘lib ketibdi dedimi, demak ko‘m-ko‘k bo‘lib ketgan, gap tamom vassalom. Ammo buvam xuddi shu joyni kelasi yil Gulhayrilar gullaganda, butun bog‘ qip-qizil bo‘lib ketibdi, der, shunda hamma buni inkor etib bo‘lmaydigan ayni haqiqat, deb qabul qilishga majbur edi: Gulxayri degani faqat qizil bo‘ladi-da axir!

Buvamning Savva Dem’yanovich ismli yoshlikda uncha muncha o‘g‘rilik ham qilgan bir qarindoshi bo‘lardi. Endi qariganda ichkilikka mukkasidan ketgan, hazilkash bo‘lib qolgan, ko‘pincha hech bir g‘arazsiz bo‘lsa-da buvamning jahlini chiqarib yuborardi. Aytaylik, buvam biron narsani hikoya qilarkan, Savva Dem’yanovich birdan buvamning gapini bo‘lib:

– Qachondan beri tulki qizil bo‘lib qoldi, axir, u sariq bo‘ladi-ku, – deb qolardi.

– Hm, nega sariq bo‘larkan? – unga ko‘zlarini ola-kula qilardi buvam. – Sening burning sariq!

Savva xavotirlanib xuddi pishgan garimdoriday qizg‘ish burnini ushlab ko‘rar edi, va:

– Burnim qizil! Ammo bu yerdan Bixachgacha hamma millatlar tulki sariqligini biladi, sen bo‘lsang... – deb jirillardi.

Savvaning nazarida dunyo bepoyon, uning oxiri Bixagacha boradi, Bixachni bilishiga sabab shu-ki, bu amaki sho‘rlik bir necha marta o‘sha yerdagi turmada yotgan, lekin hatto bunday masofa ham buvamga ta’sir qilmas va uni o‘z fikridan qaytara olmas edi.

– He, Bixachingdan o‘rgildim! Bixachning minorasi tagida faqat sen emas, boshqalar ham yotgan, ammo hech kim tulkini sariq demaydi. Sen arag‘ingni ichib, pistaday qilib yursang bo‘lardi, mening nevaralarimni adashtirma, bildingmi?!

Nevaralari bo‘lmish biz uch bola esa, bir burchakda buvalarning pinjlariga tiqilib, Savva amaki qachon sayoqlik yillaridagi hangomalarini eslab qolarkin, deb og‘ziga tikilib o‘tirardik. Tulki terisining tusi haqidagi adi-badilar bizni tirnoqcha ham qiziqtirmasdi! Tusi qanaqa bo‘lmasin Tulki Tulki-da!

Buvamning tuslarga oid shapko‘rligi va qaysarligi tufayli, men, aytishim mumkin-ki endi mustaqil hayotga qadam qo‘yayotgan paytimda o‘ng‘aysiz ahvolga tushgan edim.

Bu boshlang‘ich maktabning birinchi sinfida bo‘lgan edi.

O‘qituvchi opamiz taxminan o‘quv yilining o‘rtalarida bizga bo‘ri haqida hikoya qilar va bo‘ri qanday yashashi, nima bilan oziqlanishini aytib berarkan, birdaniga:

– Bolalar, kim biladi, bo‘rining tusi qanaqa bo‘ladi? – deb so‘rab qolsa bo‘ladimi!

Birinchi bo‘lib men qo‘l ko‘tardim.

– Mana Branko aytadi.

– Bo‘ri yashil bo‘ladi – deb to‘rsilladim mag‘rurlik bilan.

O‘qituvchi bir sapchib tushdi va hayratlanib qoshlarini ko‘tardi.

– Xudo yor bo‘lgur bolajonim, kim aytdi senga bunday deb?

– Buvam aytganlar! – men yanada qat’iy ishonch bilan javob berdim.

– Bu noto‘g‘ri, bo‘ri yashil emas.

– Yo‘q, yashil, yashil! – shavkatli Rade boboning asl nevarasi sifatida o‘zim ham kutmagan holda gapimda mahkam turib oldim.



O‘qituvchi opa partamga juda yaqin keldi-da, menga tikildi, so‘ng birdan g‘ashi kelib qulog‘imni cho‘zdi:

– Dono buvangga borib ayt, bu noto‘g‘ri. Bo‘ri kulrang bo‘ladi. Kulrang, hech qachon unutma buni.

O‘sha kuni men uyga yig‘lamsirab keldim va burnimni torta-torta maktabda bo‘lgan voqeani buvamga aytib berdim.

U qanday bo‘ronlarni keltirib chiqarishini hatto xayolimga ham keltirmagan edim.

– Nima?! Butun sinfning oldida ko‘zning oq-u qorasi, sevikli nevarasining qulog‘ini cho‘zdimi, muhtaram bir cholni zahar-xandalik bilan dono, ya’ni ahmoq dedimi? Shu ahvolga tushdikmi hali? Tag‘in bo‘ri yashil emas, qandaydur kul...pul...hmm, Eh, yo‘q, bunga beparvo qarab bo‘lmaydi.

Ertasiga ertalab buvam qorni to‘q g‘ozday pishillab va g‘o‘ng‘illab men bilan birga maktab hovlisiga to‘satdan bostirib kirdi va hamma bolalarning oldida o‘qituvchi opamizga baqira ketdi:

– Senmi hali, sochi yuluq pakana, undoq-mundoq, bo‘rining tusi qanaqaligini mendan yaxshiroq biladigan-a?! Yashil emas deyapsanmi? Qaranglar-a, topgan gapini! Men bo‘rilar bilan birga tug‘ilib o‘sganman, umrim bo‘yi ular bilan apoq-chapoqman, manovi urg‘ochi esa... Sening aqlingni kiritib qo‘yish uchun ikkala dumbangni novda bilan savalab qizdirish kerak, bildingmi?

Buvam rosa baqirib-chaqirdi. O‘qituvchi yig‘lab yubordi. Biz birinchi sinfliklar uchun, rosa maza bo‘ldi. O‘sha kuni o‘qish bo‘lmadi.

Ertasiga ertalab militsionerlar buvamni olib ketgani kelishdi... Qandala bosgan shahar militsiyasida bir hafta yotib chiqdi, u yerdan rangida rang qolmay, paxtaday muloyim bo‘lib qaytganda, uyqu oldidan menga barmog‘i bilan po‘pisa qildi:

– Menga qara, hoy o‘ tili o‘tkir bola, yodingda bo‘lsin: keraksiz narsalar, masalan nimaning tusi qanaqaligi haqida yana gapirib yuradigan bo‘lsang, o‘zim surobingni to‘g‘irlab qo‘yaman, bo‘ri yashil, ha-ha-ha! Yashilmi yo‘qmi, sening nima ishing bor?

– U o‘zi mendan so‘radi-da!

– So‘radi, so‘radi... Indamaslik kerak edi, tamom vassalom.

O‘sha yili bahor bo‘ronli va seryog‘in keldi. Keyin bog‘imizda gulxayrilar har qachongidan chiroyliroq bo‘lib ochildi. Ammo endi buvam xuddi ularni payqamayotgandek edi. Chakagi tinmaydigan Savva amakining gangir-gungir gaplari ham buvamni qiziqtirmas, buvam bu dunyoning barcha bo‘yoqlari va tuslarini farqlamas – ko‘rmas edi. Unga qarasam, ezilib ketardim.

U olis g‘amli kunlar o‘tib ketganiga yarim asr bo‘ldi, buvam allaqachon olamdan o‘tib ketgan, men bo‘lsam hozirgi kungacha Gulxayrining tusi qanaqaligini bilmayman. Faqat, bahor kunlarining birida bog‘chamizning bag‘azlari qorayib ketgan to‘sig‘i ortida mehr-u tarovat bilan allanima yilt-yilt qilib yiltirayotganini bilaman, shunda birdan ichim siqiladi, nimaga siqilganini, bu dunyoda nimani abadiy yo‘qotganimni bilmasam-da, yig‘lagim keladi.

MUNDARIJA

ITALIYA BOLALAR ADABIYOTI

JANNI RODARI

She'rlar

Qo'shiq haqida qo'shiq 5
Kasblarning ranggi qanaqa? 6
Kasblarning hidi qanaqa? 6
Shahar tramvayi 7
Oqargan sochlar 8
Dunyoda suv har xil bo'ladi 9
Qochoqlar poyezdi 10

LYUCHIO PIZANI

She'rlar

Yomg'ir 11
Dadam bilan sayr 12
Tushunarsiz 13
Esizgina 14
Shamol 15
Zolushka va nohaqlik 16
Qorbobo 17
Qorqiz bilan bola 17

BOLGARIYA BOLALAR ADABIYOTI

IVAN VAZOV

She'rlar

Yangicha maqomga sozlandi gulsam 20
Qish 22
Bizning osmon ostida 23

Oldinga....24
Qo‘shchi qarshisida....25
Uchta so‘z – uch dara....25
Mening onam....25
Ona tili....26
Eh, qanday yaxshisan, jonajon Vatan....27

ASEN BOSEV

She’rlar

Bo‘rining ahmog‘i....30
Aqlli o‘g‘ il....33
Qopning ukasi....34
Eshak....35
O‘qchi....35
Sovg‘a....35
Uch dara....36

POLSHA BOLALAR ADABIYOTI

ADAM MISKEVICH

She’rlar

Adamning qo‘shig‘i....40
Odamlar va boyqushlar....41
Do‘stlar....42
Eshak bilan ko‘ppak....43
Boychechak....45

YULIYAN TUVIM

She’rlar

Yangi harflar....48
Sabzavot....49
Juda kerakli bir ish yuzasidan hamma bolalarga xat....50
Yanek degan bola haqida....51

Ko‘zoynak qayga ketdi? 52
Kechikkan ota ulbul 54
Qushlar radiosi 55

YAN BJEXVA

She’rlar

Ufq orollari 58
Tyulen qanday tyulen bo‘lgan? 59
Pishloq teshikchalari 62

CHEXIYA BOLALAR ADABIYOTI

VITEZSLAV NEZVAL

She’rlar

Sehrli makonga boramiz 66
Shoshma, kuz 67
Kalit tushdi koptokka 68
Qari qirol asalxo‘r 68
Men hammadan xafaman 69
Xo‘roz 70
Bahor quyos 71
Xo‘rsiniq 71
To‘rtlik 71

SLOVAKIYA BOLALAR ADABIYOTI

MILAN RUFUS

She’rlar

Bir o‘gil bola 73
Qachon pishamiz? 73
Tarix 74
Oltin musiqa 76
Ko‘pik polvon va uning do‘stlari 78

RUMINIYA BOLALAR ADABIYOTI

TUDOR ARGEZI

She'rlar

Omoch 84
O'roq 85
Mitsuraga mening allam 86

SERBIYA BOLALAR ADABIYOTI

YOVAN YOVANOVICH – ZMAY

She'rlar

Kichkina ertak 88
Urushga 88
Teskari 89
G'aroyib qishloq 90
Tungi qorovul 90
Olma pish, og'zimga tush 91
Bola bilan kapalak 92
Eshakning quloqlari 93

BRANKO CHOPICH

Hikoya

Gulxayri tusidagi bog' 95

Adabiy-badiiy nashr

Jahon bolalar adabiyoti

Bola bilan Kapalak

Italiya, Bolgariya, Polsha, Chexiya, Slovakiya, Ruminiya, Serbiya

Muharrir *Sanjar Tursunov*
Badiiy muharrir *Izzat Yuldoshev*
Texnik muharrir *Xosiyat Hasanova*
Sahifalovchi *Umida Valijonova*

Nashr. lits. AI № 290. 04.11.2016
2020-yil 5-fevralda bosishga ruxsat etildi.
Bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$ Times New Roman garniturasi.
Ofset bosma. 6,04 shartli bosma toboq. 4,51 nashr tobog'i.
Adadi 5000 nusxa. 68- raqamli buyurtma.
Bahosi shartnoma asosida.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining
G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Toshkent, 100128. Labzak ko'chasi, 86.

Telefon: (371) 241-25-24, 241-83-29
Faks: (371) 241-82-69
www.gglit.uz info@gglit.uz